

**ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/05.05.2023.Ped.166.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

XASANOVA GULSANAM XUSANOVNA

**MAGISTRATURA TALABALARINI IJTIMOYIY-MADANIY
FAOLIYATGA TAYYORLASH METODIKASI (o‘zbek tili va adabiyoti
mutaxassisligi misolida)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o‘zbek tili)

**Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiya avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора наук (DSc)

Contents of the dissertation abstract of the doctor of sciences (DSc)

Xasanova Gulsanam Xusanovna

Magistratura talabalarini ijtimoiy-madaniy faoliyatga tayyorlash metodikasi (o‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi misolida).....3

Хасанова Гулсанам Хусановна

Методика подготовки магистрантов к социокультурной деятельности (на примере специализации узбекский язык и литература).....34

Khasanova Gulsanam Khusanovna

Methodology of preparing master's students for socio-cultural activities (on the example of the specialization Uzbek language and literature).....68

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of publications.....73

**ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/05.05.2023.Ped.166.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

**MAGISTRATURA TALABALARINI IJTIMOYIY-MADANIY
FAOLIYATGA TAYYORLASH METODIKASI (o‘zbek tili va adabiyoti
mutaxassisligi misolida)**

13.00.02 – Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (o‘zbek tili)

**Pedagogika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon - 2025

Fan doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.08.24.DSc/Ped135 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Andijon davlat pedagogika institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.adpi.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:

Rasulov Baxtiyor Maxmudjonovich
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Yusupova Shohidaxon Jaloliddinovna
pedagogika fanlari doktori, professor

Zamileva Rimma Ravilevna
pedagogika fanlari doktori, professor

Teshabayeva Dilfuza Muminovna
filologiya fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Dissertatsiya himoyasi Andijon davlat pedagogika instituti huzuridagi PhD.03/05.05.2023.Ped.166.01 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil “_____” _____ soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 170100, Andijon shahri, Taxtako‘prik MFY, Do‘stlik ko‘chasi, 4-uy. Tel.: (374) 224-01-70, e-mail: adpi@edu.uz, institut@exat.uz. Andijon davlat pedagogika instituti, ma‘muriyat binosi, 2-qavat, 208-kengashlar xonasi)

Dissertatsiya bilan Andijon davlat pedagogika institutining Axborot – resurs markazida tanishish mumkin ((_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan.) (Manzil: 170100, Andijon shahri, Taxtako‘prik MFY, Do‘stlik ko‘chasi, 4-uy.) Tel.: (374) 224-01-70).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil “_____” _____da tarqatildi.

(2025 yil “_____” _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

M.B.Artiqova

Ilmiy darajalar beruvchi
bir martalik ilmiy kengash raisi,
p.f.d., professor

D.T.Samatov

Ilmiy darajalar beruvchi
bir martalik ilmiy kengash kotibi,
p.f.f.d (PhD), dotsent

B.A.Sirojiddinov

Ilmiy darajalar beruvchi
bir martalik ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi,
b.f.d., professor

KIRISH (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashtayotgan va ilm-fan jadal sur'atlarda taraqqiy etayotgan zamonda xalqaro raqobat jarayoni shartlariga tez moslashuvchan shuningdek, mehnat bozorida mutaxassislar malakasiga qo'yilayotgan talablar darajasida samarali faoliyat yurituvchi shaxsni shakllantirish dolzarb muammo hisoblanadi. 2030-yilgacha mo'ljallangan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Barqaror Taraqqiyot Dasturining 4-maqсадida "hayot davomida ta'lim olishni rag'batlantirish, ta'limning barcha bo'g'inlarida kadrlar kompetentligini rivojlantirish bo'yicha"¹ vazifalar belgilab berilgan. Mazkur vazifalarning yechimida, ayniqsa, ijtimoiy-madaniy faoliyat asosida tez moslashish, yangi sharoitlarga ko'nikma qobiliyati, uzluksiz o'rganish (life learning) ta'limiga tayyorgarlik, mavjud bilim, ko'nikma, qobiliyatlarini yangi faoliyat obyektlariga tadbiq qilishga layoqatli bo'la oladigan meta-kompetensiyalarga ega mutaxassislar tayyorlash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda xorijiy oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida ijtimoiy-madaniy faoliyatda talaba yoshlarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishning psixologik jihatlari va xususiyatlari, kommunikativ va ilmiy tadqiqotchilik, yetakchilik kompetensiyalarini shakllantirish texnologiyalari, darsdan tashqari ishlarda tashkilotchilik qobiliyatlarni shakllantirish, ijtimoiy-madaniy loyihalashtirish, bo'lajak mutaxassisning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi, magistrnlarni kompetentli tayyorlashning didaktik ta'minoti bo'yicha ilmiy tadqiqotlar alohida ahamiyatga molikdir. Mazkur masalalar bo'yicha Yevropa Kengashi 1996-yilda "Yevropa uchun tayanch kompetensiyalar" mavzusidagi Simpoziumda Yevropa Ittifoqiga a'zo davlatlarga uzluksiz ta'lim tizimi jarayonida shakllantirilishi lozim bo'lgan tayanch kompetensiyalarni² tavsiya etgan. Shu jihatdan shaxsga yo'naltirilgan ta'lim jarayonlarini rivojlantirish, ta'lim jarayonlarini modernizatsiyalash sharoitida ijtimoiy-madaniy faoliyat orqali talabalarning umumadaniy va kasbiy kompetensiyalarini takomillashtirish, mehnat bozorida o'zgaruvchan tendensiyalarga tezkor moslashish imkonini beruvchi meta-kompetensiyalar (soft skills)ni qaror toptirish, ta'lim sifatini oshirishni kompleks boshqarish (Total quality management), ilg'or tajribalarni almashish orqali ta'limning tashkiliy-pedagogik jarayonidagi kamchiliklarni bartaraf etish, yangicha yondashuv, texnologiya va tamoyillarni ishlab chiqish va rivojlantirish zaruratini izohlaydi.

Yangi O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar natijasida magistraturaning huquqiy-me'yoriy, ilmiy-metodik va moddiy-texnik ta'minoti mustahkamlandi, magistratura mutaxassisliklarining Davlat ta'lim standartlari ishlab chiqildi, o'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalari tatbiq qilindi. Shular bilan bir qatorda, magistratura talabalarini ijtimoiy-madaniy faoliyatga tayyorlash metodikasini

¹ <https://unstats.un.org/sdgs/files/report/2024/SG-SDG-Progress-Report-2024-advanced-unedited-version.pdf>

² Education A. et al. Developing key competences at school in Europe: challenges and opportunities for policy. – 2015.

rivojlantirish zarurati ko'zga tashlanmoqda. O'zbekiston Respublikasining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ning 47-maqсадida "2026-yilga qadar 10 ta salohiyatli oliy ta'lim muassasasini QS va THE xalqaro reytinglariga kirishga maqsadli tayyorlash"¹ vazifasi belgilanib, bu borada bugungi kunda magistratura talabalarining meta-kompetensiyalarini (soft skills) rivojlantirishda ijtimoiy-madaniy faoliyat dolzarb ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018-yil 14-avgustdagi PQ-3907-son "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida" hamda 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 13-maydagi 394-son "Mehnat bozorida talab yuqori bo'lgan malakali kadrlarni kasbga tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi². Magistratura talabalarining ilmiy tadqiqotchilik va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish bilan bog'liq ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalarida, jumladan, University of Massachusetts (AQSH), European Qualification Framework (AQSH, Brussel), Development and Selection of Key Competencies (DeSeCo) (Shvesariya), Nagoya universiteti (Yaponiya),

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги «2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги ПФ-60-сон Фармони. 47-мақсад. https://president.uz/uz/pages/view/strategy?menu_id=144 (Murojaat sanasi: 24.01.2023)

² Mazkur qismni yozishda quyidagi manbalarga asoslanildi: Botcheva L., Shih J., Huffman L.C. Emphasizing Cultural Competence in Evaluation: A Process-Oriented Approach // American Journal of Evaluation. – 2009. Volume 30. №2. – P. 176-188.; Gresham F.M. Best Practices in Social Skills Training – National Association of School Psychologists: 2002. – P. 1029–1040; JACHANOVÁ DOLEŽELOVÁ, Alexandra. European Union as a factor of the advancement of gender equality in the Czech Republic. Diplomová práce, vedoucí Rovná, Lenka. Univerzita Karlova, Fakulta sociálních věd, Katedra politologie, 2006; Isaacs Miranda Ruth, "Tackling Youth Unemployment: An Investigation of Youth Employment in Italy". 2018. University of Tennessee Honors Thesis Projects; E. Ho, A. Clarke, I. Dougherty, Youth-led social change: Topics, engagement types, organizational types, strategies, and impacts, Environment and Resource Studies, University of Waterloo, 200 University Ave W, Waterloo, ON N2L 3G1, Canada.; Маклин Р. Инновации и реформы школьного образования в странах Азии / Перспективы вопросы образования. Ежеквартальный журнал ЮНЕСКО. – М.: 1993 № 3 (83) – С. 128-141.

Youth Entrepreneurship: Theory, Practice and Field Development (AQSH), Moskva davlat pedagogika universiteti (Rossiya), Belfild pedagogika universitetida (Germaniya) olib borilmoqda.

Jahonning yetakchi ilmiy-tadqiqot muassasalarida ijtimoiy-madaniy faoliyat shaxsning qadriyat yoʻnalishlarini shakllantirish omili, ijtimoiy-madaniy faoliyatning aksiologik salohiyati yoshlarni maʼnaviy-axloqiy tarbiyalash resursi sifatida, ijtimoiy-madaniy faoliyatni konseptualashtirish amaliyoti va masalalari, kasbiy kompetensiyaning rivojlanishiga turli tashkiliy omillarning taʼsiri, shaxs shakllanishida kompetensiya oʻz qobiliyatlarini oʻz zimmasiga va maʼsuliyatiga yondashib munosabatga kirishishi, kompetensiyalarni belgilash va tanlash uchun nazariy va konseptual asoslarini, shuningdek, shaxs kompetensiyalarining statistik koʻrsatkichlarini kelajakda uzluksiz rivojlantirish, taʼlim natijalariga nisbatan empirik natijalar, meta-kompetensiyalarning rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish boʻyicha ilmiy ishlar olib borilmoqda.

Muammoning oʻrganilganlik darajasi. Mamlakatimizda oliy taʼlimni boshqarish sifati va didaktikasiga oid muammolar, madaniy-insonparvarlik yondashuv asosida talabalarni shaxsiy va kasbiy ijtimoiylashtirish masalalarini takomillashtirish hamda shaxsni ijodiy rivojlantirish bilan bogʻliq ilmiy izlanishlar Z.Azimova, M.Artiqova, R.Djurayev, N.Egamberdiyeva, Z.Ismoilova, Sh.Mardanov, A.Maxmudov, N.Muslimov, O.Musurmonova, Z.Nishonova, R.Sunnatova, G.Tulenova, Sh.Sharipov, A.Umarov, M.Urozova, M.Quronov¹ va boshqa olimlar tomonidan amalga oshirilgan.

Ijtimoiy-madaniy faoliyatning mohiyati, vazifalari, usullari va shakllari, uning shaxsni shakllantirish salohiyati, ijtimoiy-madaniy faoliyatning nazariy va uslubiy masalalari, ijtimoiy-madaniy faoliyatda shaxslararo munosabatlarni rivojlantirish hamda shaxsning qadriyat yoʻnalishlarini shakllantirish omillari, yoshlar

¹ Azimova Z.Э. Тарбиявий ишлар тизимини интеграл диагностик асосда такомиллаштириш: Пед. фан. док. ... дисс. автореф. – Н., 2018. – 57 б.; Артикова М.Б. Умумтаълим мактаби ва оила ҳамкорлиги асосида ўқувчиларда тадбиркорлик кўникмаларини ривожлантириш: Пед. фан. док. ... (DSc) дисс. – Т., 2020. – 280 б.; Джураев Р.Х. Организационно-педагогические основы интенсификации системы профессиональной подготовки в учебных заведениях профессионального образования: Автореф. дисс. ... док. пед. наук. – СПб.: 1995. – 43 с.; Эгамбердиева Н.М. Маданий-инсонпарварлик ёндашув асосида талабаларни шахсий ва касбий ижтимоийлаштириш назарияси ва амалиёти (Педагогика олий таълим муассасалари мисолида): Пед. фан. док. ... дисс. – Т., 2010. – 332 б.; Исмоилова З.К. Маънавий-ахлоқий тарбиянинг назарий ва экспериментал-методик асослари (“Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар” асари асосида): Пед. фан. док. ... дисс. автореф. – Т., 2006. – 42 б.; Мardанов Ш. Педагог кадрларни таълимий кадрлар асосида тайёрлаш ва малакасини оширишнинг педагогик асослари: Пед. фан. док. ... дисс. – Т., 2006. – 302 б.; Махмудов М.Х. Таълимни дидактик лойиҳалашнинг назарий асослари. Пед. фан. док. ... дисс. – Т., 2003. – 342 б.; Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчисини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари: Пед. фан. док. ... дисс. – Т., 2007. – 315 б.; Мусурмонова О. Юқори синф ўқувчилари маънавий маданиятини шакллантиришнинг педагогик асослари: Пед. фан. док. ... дисс. – Т., 1993. – 364 б.; Нишонова З.Т. Мустақил ижодий фикрлашни шакллантиришнинг психологик асослари: Псих. фан. док. ... дисс. – Т., 2005. – 391 б.; Суннатова Р.И. Индивидуально-типологические особенности мыслительной деятельности: Автореф. дисс. ... док. псих. наук. – Т., 2001. – 41 с.; Туленова Г. Ёшлар ижтимоий фаоллигини оширишда маънавий омилнинг роли (Ижтимоий-фалсафий таҳлил): Филс. фан. док. ... дисс. – Т., 2006. – 317 б.; Шарипов Ш.С. Талабалар ихтирочилигини шакллантиришнинг педагогик шароитлари: Пед. фан. номз. дисс. – Т., 2001. – 140 б.; Умаров А.А. Ижтимоий-маданий тараққиётни таъминлаш ва комил инсон шахсини шакллантиришда мутолаанинг роли: Соц. фан. док. ... дисс. – Т., 2005. – 274 б.; Уразова М.Б. Совершенствование технологии подготовки будущего педагога профессионального образования к проектировочной деятельности: Дисс. ... док. пед. наук. – Т., 2015. – 287.; Қуронов М. Ўзбекистон умумий ўрта таълим мактабларида миллий тарбиянинг илмий-педагогик асослари: Пед. фан. док. ... дисс. – Т., 1998. – 316 б.

muammolarining ijtimoiy, falsafiy va madaniy jihatlari, shaxsning qobiliyat, ko'nikma va malakalarni shakllantirishning turli jihatlari, talabalarning tashkilotchilik qobiliyatini shakllantirish yo'llari, vositalari va usullari V.Ya.Adolf, O.A.Anisimova, L.V.Andruxiv, K.A.Bajenova, T.Ye.Berezkina, A.V.Vertayev, Yu.L.Giryakova, A.D.Darjaniya, A.D.Danilova, N.M.Golubeva, Ye.P.Kireyeva, T.G.Kiseleva, O.S.Krakovskaya, N.A.Ran, Ye.V.Savenkova, V.G.Suranov, A.Ye.Shastina, A.Yu.Shabaykin, V.N.Fefelova, Ye.V.Frolova¹ tomonidan tadqiq qilingan, yetakchilik haqidagi g'oyalar yig'indisi esa L.I.Umanskiy² konsepsiyasida berilgan.

Pedagogik o'lchovlar nazariyasi va metodologiyasi, kompetensiya/kompetentlikni baholash usullari va diagnostikasi tizimini takomillashtirish masalalari, yoshlar ijtimoiy kompetensiyalarini shakllantirishning ilmiy-amaliy jihatlari P.Descy, D.K.Kelly, D.C.McClelland, B.Mansfield, B.Sellin, R.Stogdill, S.Whiddett & S.Hollyforde³ kabi pedagog olimlarning ishlarida yoritilgan.

¹ Адольф В.Я. Профессиональная компетентность современного учителя. Монография. – Красноярский гос. ун-т. Красноярск, 1998. – 310 с; Анисимова О.А. Психолого-педагогическая компетентность как фактор сохранения и укрепления профессионального здоровья учителя: Дисс... канд. псих. наук – М., 2002. – 160 с.; Андрухив Л.В. Формирование у будущих экономистов умения работать с информацией: Автореф. дисс. канд. пед. наук. – Астрахань: АГУ, 2008. – 19 с.; Баженова К.А. Формирование организационно-управленческой компетентности педагогов руководителей исследовательской деятельностью школьников: Дисс. ... канд. пед. наук. – Красноярск, 2009. – 197 с.; Березкина Т.Е. Организационно-управленческая деятельность юриста: учебник и практикум для бакалавриата и магистратуры. – М.: Юрайт, 2014. – 392 с.; Вертаев А. В. Формирование компетенции принятия оптимальных управленческих решений у курсантов вузов внутренних войск МВД России с использованием метода служебно-боевых ситуаций: Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. – Санкт-Петербург, 2015. – 24 с.; Гирякова Ю.Л. Формирование профессиональных компетенций магистров в исследовательском университете: Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. – Красноярск, 2008. – 22 с.; Даржания А.Д. Формирование организационно-управленческих умений студентов технических специальностей профессионального колледжа: Дисс. ... канд. пед. наук. – Ставрополь, 2010. – 222 с.; Данилова Т.В. Педагогическая технология формирования организационно-управленческой компетентности у курсантов вузов МЧС России: Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. – Санкт-Петербург, 2015. – 23 с.; Голубева Н.М. Адаптация студентов вуза к профессиональной деятельности: на примере подготовки будущих менеджеров: Дисс. ... канд. пед. наук.: – Нижний Новгород, 2004; Киреева Е.П. Формирование профессиональных компетенций у курсантов военно-инженерных вузов: Автореф. дисс. ... канд. пед. наук. – Москва, 2013. – 23 с.; Киселева Т.Г. Социально-культурная деятельность: учебник. – Москва: Моск. гос. ун-т культуры и искусств, 2004. – 539 с.; Краковская О.С. Формирование организационно-управленческой компетенции бакалавров лингвистики: Автореф. дисс ... канд. пед. наук. – Калининград, 2015. – 27 с.; Ран Н.А. Формирование организационно-управленческой компетентности студентов технического вуза: Дисс. ... канд. пед. наук. – Оренбург, 2015. – 213 с.; Савенкова Е.В. Технология формирования организационно-управленческой компетентности будущих менеджеров образования в условиях педагогического вуза / Современные образовательные технологии: монография. – Новосибирск: ЦРНС, 2016. – 182 с. – Глава 4, С. 121-135.; Суранов В.Г. Формирование организаторской компетенции у студентов педагогического вуза в системе деятельности студенческого клуба: Дисс. ... канд. пед. наук. – Чебоксары, 2010. – 244 с.; Шастина А.Е. Развитие организационно-управленческих компетенций в процессе повышения квалификации инженерно-технических кадров: Дисс. ... канд. пед. наук. – Казань, 2014. – 130 с.; Шabaykin А.Ю. Социально-философский анализ организационно-управленческой деятельности и ее оптимизации в современных условиях: Дисс. ... канд. фил. наук. – Москва, 2014. – 179 с.; Фefelova В.Н. Формирование управленческой компетентности специалиста по рекреации и туризму: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. – М., 2010. – 24 с.; Фролова Е.В. Формирование учения организации учебной работы с учащимися в малых группах в развивающем обучении у будущих учителей начальных классов: Дисс. ... канд. пед. наук. – Челябинск: ЧГПУ, 1999. – 172 с.

² Уманский Л.И. Личность. Организаторская деятельность. Коллектив. Изб. Пед. тр. – Кострома, КГУ им. Н.А. Некрасова, 2001. – 208 с.

³ Descy P., Tessaring M. Training and Learning for Competence. CEDEFOP. Luxembourg: Office for Official Publications of the European Communities, 2014, - P. 25-42.; Kelly D.K. The Effects of Classroom Research upon

Tadqiqotda tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekistonda OTMLar muhitida ijtimoiy-madaniy faoliyatning o'ziga xosligi, magistratura talabalarini ijtimoiy-madaniy faoliyatga tayyorlash, mustaqil ta'lim jarayonida ijtimoiy-madaniy texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari, magistratura talabalarining meta-kompetensiyalarini rivojlantirish jihati, pedagogik nazariya, metodologiya va ijtimoiy-madaniy faoliyatni tashkil etish darajasida yetarlicha e'tiborga olinmagan. Bugungi kunda mustaqil ta'lim jarayonida magistratura talabalarini ijtimoiy-madaniy faoliyatga tayyorlashning pedagogik mexanizmlarini aks ettiruvchi tizimli tadqiqotlar zarurati mazkur tadqiqot ishi yo'nalishini belgilashda asos bo'lib xizmat qildi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Andijon davlat pedagogika instituti Pedagogika kafedrasining "Ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish va sifatini ta'minlash" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi mustaqil ta'lim jarayonida o'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistratura talabalarini ijtimoiy-madaniy faoliyatga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirishga doir ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ijtimoiy-madaniy faoliyat jarayonining mohiyati, ularning mustaqil ta'lim jarayonida namoyon bo'lish shakllari, shuningdek ijtimoiy-madaniy faoliyatining tashkiliy-pedagogik xususiyatlarini tavsiflash;

o'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistratura talabalarining meta-kompetensiyasini takomillashtirish hamda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning integrativ tuzilmasi va tarkibiy-mazmuniy komponentlarini aniqlashtirish;

ijtimoiy-madaniy faoliyatda o'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistratura talabalarining meta-profilini baholash mezonlarini ishlab chiqish va shakllantirish usullarini takomillashtirish;

o'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistratura talabalarining "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ta'lim tizimidagi islohotlar", "Ilmiy tadqiqot metodologiyasi" va "Kasbiy ma'naviyat" darslari mustaqil ta'lim jarayonida meta-kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan "O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistratura talabalarini mustaqil ta'lim jarayonida ijtimoiy-madaniy faoliyatga tayyorlash" maxsus o'quv dasturi orqali loyihalarni rejalashtirish "Project Planning (PERT/CPM)" va iyerarxik modellashtirish texnologiyasini takomillashtirish;

Retention of Adult Learners. Saratoga Springs, N.Y.: National Centre on Adult Learning. Empire State College, 2002, - P. 184; McClelland, D.C. A Guide to Job Competency Assessment / D.C. McClelland. - Boston: McBer, 1974. - P. 381; Mansfield B., Andersson L. Competence Based Standards, Training and learning. Hifab / Hammerton Associates, 2004, - P. 23-40; Sellin B. European Trends in Occupations and Qualifications. Findings of Research, Studies and Analysis for Policy and Practice. CEDEFOP, Luxemburg, EUR-Op, 2000. - P. 40-50; Stogdill R. Handbook of Leadership. A survey of Theory and Research. N.Y., 1974. - P. 7-16.; Whiddett S. & Hollyforde S. The Competences Handbook. Chartered Institute of Personnel and Development. CIPD House, 2000, - P. 12-40.

mustaqil ta'lim jarayonida o'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistratura talabalarini ijtimoiy-madaniy faoliyatga tayyorlashga qaratilgan pedagogik modelini takomillashtirish;

mustaqil ta'lim jarayonida magistratura talabalarini ijtimoiy-madaniy faoliyatga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirishga doir ilmiy taklif va uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida o'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistratura talabalarini ijtimoiy-madaniy faoliyatga tayyorlash jarayoni belgilandi.

Tadqiqotning predmetini mustaqil ta'lim jarayonida o'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistratura talabalarini ijtimoiy-madaniy faoliyatga tayyorlashning mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tadqiqot muammolari bo'yicha adabiyotlar tahlili, nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, mantiqiy tahlil, me'yoriy hujjatlarni o'rganish, pedagogik kuzatuv, pedagogik modellashtirish, pedagogik loyihalashtirish, iyerarxik modellashtirish, matematik-statistik tahlil, ilmiy umumlashtirish, so'rovnoma, test usuli, tajriba-sinov, suhbat, intervyu, bahs-munozara usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ijtimoiy-madaniy faoliyatning tashkiliy-pedagogik xususiyatlari mustaqil ta'lim jarayonida ijtimoiy-madaniy faoliyatning tamoyillariga ustuvorlik berish orqali tashkiliy-pedagogik xususiyatlarga ta'sir etuvchi omillar jamiyat va madaniyatdagi o'zgarishlar, talabalar ehtiyojlari, pedagogik tamoyillar hamda texnologik imkoniyatlarini aniqlash asosida ochib berilgan;

o'zgaruvchan sharoitlarga moslashuvchan magistratura talabalarining o'z-o'zini anglash, mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish hamda o'zining kasbiy faoliyatini tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish asosida didaktik ta'minotini ishlab chiqish orqali meta-kompetensiyalarni rivojlantirish modelining kognitiv, funksional, kasbiy va shaxsiy, motivatsion, kommunikativ, axborot-kommunikatsiya komponentlari mazmuni integrativ hamda innovatsion yondashuvlarga ustuvorlik berish orqali aniqlangan;

magistratura talabalarini meta-profilini shakllantirishning motivatsion, kognitiv, funksional, loyihali-tadqiqotli, shaxsiy mezonlari mezon-baholash tafsifining moslashuvchan, samarali, refleksiv-ijodiy darajalarini tasniflash talabalarining ijodiy nostandart vazifalarini hal qilish qobiliyatini maqsadli shakllantirishning o'quv amaliyoti, muammo yoki vazifani hal qilish uchun ishchi prototipini yaratishga qaratilgan turli xil ta'lim yo'nalishlari talablari va magistr mutaxassislari uchun loyihaga yo'naltirilgan tanlov asosidagi texnologiyalarini qo'llab dars mashg'ulotlarini tashkil qilish metodikasi takomillashtirilgan;

mustaqil ta'lim jarayonida magistratura talabalarini ijtimoiy-madaniy faoliyatga tayyorlash modelining motivatsion komponenti meta-kompetensiyalarni rivojlantirish uchun samarali strategiyalarni qo'llash orqali, natijaviylik komponenti kontekstli yondashuv asosida interfaol texnologiyalar ("Ishbilarmonlik o'yini", "Research Roadmap")ni ilmiylik, mavjudlik, kasbga yo'naltirilganlik,

mustaqillik va faollik tamoyillariga ko'ra integratsiyalash asosida takomillashtirilgan;

magistratura talabalarini ijtimoiy-madaniy faoliyatga tayyorlash metodikasining samaradorligi loyihalash rejalashtirish jarayonlarini to'g'ri talqin qilish, loyihaviy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish, tashkiliy jarayonlarni tizimlashtirish qobiliyati, tahlil va hisobot tayyorlash ko'nikmasi, ijodkorlik va innovatsion yondashuv, muammolarni ustuvorlik darajasiga ko'ra hal qilish, ierarxik maqsadlar tizimini ishlab chiqish kabi sifatlarni eksperimental o'rganish hamda ta'lim maqsadlariga vektorli yo'naltirish asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mustaqil ta'lim jarayonida o'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistratura talabalarini ijtimoiy-madaniy faoliyatga tayyorlashning o'quv-uslubiy ta'minoti yaratilgan;

magistratura talabalarini uchun ilmiy tadqiqotni tizimli amalga oshirish usul va vositalarini bayon etilgan "Research methodology" nomli darsligi yaratilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining nashr guvohnomasi № 218-398);

axborot-ta'lim texnologiyalari yordamida magistratura talabalarining ilmiy-pedagogik kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladigan "Pedagogical technology" nomli o'quv qo'llanma ishlab chiqilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining nashr guvohnomasi № 538-112);

mustaqil ta'lim jarayonida magistratura talabalarini ijtimoiy-madaniy faoliyatga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlarini takomillashtirishga doir ilmiy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv, uslub va nazariy materiallarning rasmiy manbalardan olingani, tadqiqot natijalari va tajriba-sinov ishlari samaradorligining matematik-statistik metodlari vositasida asoslangani, xulosa, taklif va tavsiyalarining amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarining vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati magistratura talabalarining majburiy fanlar blokidagi "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ta'lim tizimidagi islohotlar", "Ilmiy tadqiqot metodologiyasi" va "Kasbiy ma'naviyat" darslarining mustaqil ta'lim jarayonida "Research methodology" nomli darslik va "O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistratura talabalarini mustaqil ta'lim jarayonida ijtimoiy-madaniy faoliyatga tayyorlash" maxsus o'quv dasturi orqali ijtimoiy-madaniy faoliyatda ilmiy-tadqiqot, ilmiy-pedagogik kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan metodologik yondashuvlar hamda pedagogik shart-sharoitlar takomillashtirilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ilgari surilgan g'oyalar va takliflar, olingan natijalar va tavsiyalar ijtimoiy-madaniy faoliyatda magistratura talabalarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda, fundamental, amaliy, innovatsion va startap loyihalarni tayyorlashda, pedagogik texnologiya, pedagogik mahorat, kasbiy ma'naviyat, ilmiy-tadqiqot metodologiyasi kabi fanlar mazmunini boyitishga xizmat qiladigan aniq ilmiy-amaliy tavsiyalar mavjudligi hamda

tadqiqot materiallaridan ta'lim muassasalarida, o'qituvchilar malakasini oshirish kurslaridagi nazariy va amaliy mashg'ulotlarda keng foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi. Ushbu tadqiqot materiallari magistrnlarni meta-kompetensiyalari (soft skills) darajalarini aniqlash bo'yicha keyingi ilmiy-tadqiqotlarni olib borish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Magistratura talabalarini ijtimoiy-madaniy faoliyatga tayyorlash metodikasiga oid tadqiqotda olingan ilmiy natijalar asosida:

mustaqil ta'lim jarayonida ijtimoiy-madaniy faoliyatning tashkiliy-pedagogik xususiyatlari ijtimoiy-madaniy faoliyatning tamoyillariga ustuvorlik berish orqali tashkiliy-pedagogik xususiyatlarga ta'sir etuvchi omillar jamiyat va madaniyatdagi o'zgarishlar, talabalar ehtiyojlari, pedagogik tamoyillar hamda texnologik imkoniyatlarni hisobga olish orqali aniqlashga qaratilgan takliflari "Research methodology" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 25-iyundagi 218-sonli ruxsatnomasi). Mazkur darslik magistratura talabalarini pedagogik faoliyatga tayyorlash samaradorligi, kasbiy kompetentligi darajalari, professor-o'qituvchilarning kasbiy malakasi darajalarini oshirishga xizmat qilgan;

o'zgaruvchan sharoitlarga moslashuvchan magistratura talabalarining o'z-o'zini anglash, mustaqil fikrlash, muammolarni hal qilish hamda o'zining kasbiy faoliyatini tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirish asosida didaktik ta'minotini ishlab chiqish orqali meta-kompetensiyalarni rivojlantirish modelining kognitiv, funksional, kasbiy va shaxsiy, motivatsion, kommunikativ, axborot-kommunikatsiya komponentlari mazmuni integrativ hamda innovatsion yondashuvlarga ustuvorlik berishga oid takliflari "Research methodology" nomli darslik mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 25-iyundagi 218-sonli ruxsatnomasi). Natijada "Research methodology" darsligi o'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistratura talabalarining ilmiy tadqiqotni tizimli amalga oshirish va meta-kompetensiyalarini takomillashtirishda muhim resurs bo'lib xizmat qilgan;

magistratura talabalari meta-profilini shakllantirishning motivatsion, kognitiv, funksional, loyihali-tadqiqotli, shaxsiy mezonlari mezon-baholash tafsifining moslashuvchan, samarali, reflektiv-ijodiy darajalarini tasniflash talabalarining ijodiy nostandart vazifalarni hal qilish qobiliyatini maqsadli shakllantirishning o'quv amaliyoti, muammo yoki vazifani hal qilish uchun ishchi prototipni yaratishga qaratilgan turli xil ta'lim yo'nalishlari talablari va turli kasblar mutaxassislari uchun loyihaga yo'naltirilgan tanlov asosidagi texnologiyalarni qo'llashga doir takliflaridan O'zbekiston Milliy axborot agentligi Ilm-fan ruknidagi internet materiallarini takomillashtirishda foydalanildi ("Uza.uz" tahririyatining 2023-yil 3-oktyabrdagi 01-23/899-son ma'lumotnomasi). Taklif etilgan tavsiyalar pedagogika ta'limi sohalarida yangilanishlarni amalga oshirishga yordam bergan;

mustaqil ta'lim jarayonida magistratura talabalarini ijtimoiy-madaniy faoliyatga tayyorlash modelining motivatsion komponenti meta-kompetensiyalarni rivojlantirish uchun samarali strategiyalarni qo'llash orqali, natijaviylik

komponenti kontekstli yondashuv asosida interfaol texnologiyalar (“Ishbilarmonlik o‘yini”, “Research Roadmap”)ni ilmiylik, mavjudlik, kasbga yo‘naltirilganlik, mustaqillik va faollik tamoyillariga ko‘ra integratsiyalash va magistratura talabalarini ijtimoiy-madaniy faoliyatga tayyorlash metodikasining samaradorligi loyihalarni rejalashtirish jarayonlarini to‘g‘ri talqin qilish, loyihaviy fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirish, tashkiliy jarayonlarni tizimlashtirish qobiliyati, tahlil va hisobot tayyorlash ko‘nikmasi, ijodkorlik va innovatsion yondashuv, muammolarni ustuvorlik darajasiga ko‘ra hal qilish, ierarxik maqsadlar tizimini ishlab chiqish kabi sifatlarini eksperimental o‘rganish hamda ta‘lim maqsadlariga vektorli yo‘naltirishga doir takliflaridan Respublika ta‘lim markazida pedagogik dasturiy vositalar, boshqaruvda qarorlar qabul qilish, kadrlar tanlashdagi muhim omillar, kadrlar tanlash texnologiyasini ta‘lim jarayoniga olib kirishda foydalanilgan (Respublika ta‘lim markazining 2023-yil 28-sentyabrdagi 01/11-801-son ma‘lumotnomasi). Natijalar ijtimoiy-madaniy faoliyatga tayyorlashda yangi yondashuvlar, magistrnlarni kompetentli tayyorlashning didaktik ta‘minoti bo‘yicha dolzarb muammolarni ko‘tarib chiqish kabi vazifalarni amalga oshirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 4 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda, Ozarbayjon Respublikasi, Boku shahrida o‘tkazilgan “III.Uluslararası Türk Dünyası İletişim ve Sanat Sempozyumu (Turk dunyosi san‘at va kommunikatsiyalar xalqaro simpoziumi)”da muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 43 ta ilmiy ishlar, shu jumladan, 2 ta monografiya, 1 ta darslik, 1 ta o‘quv qo‘llanma, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 19 ta maqola (13 tasi respublika va 6 tasi xorijiy jurnallarda) chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, 4 ta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 217 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning usullari, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati asoslab berilgan, natijalarning amaliyotga joriy etilganligi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, natijalarning e‘lon qilinganligi, dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi borasidagi ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning “**Magistratura talabalarini ijtimoiy-madaniy faoliyatga tayyorlashning nazariy-metodologik asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida tadqiqot muammosi yuzasidan mamlakatimizdagi va xorijiy ilmiy adabiyotlar ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan tahlil qilingan, ijtimoiy-madaniy faoliyat jarayonining mohiyati, ularning oliy ta‘lim o‘quv jarayonida namoyon bo‘lish

shakllari, ijtimoiy-madaniy faoliyatning asosiy tamoyillari, vazifalari va o'ziga xos xususiyatlari, o'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistratura talabalari ijtimoiy-madaniy faoliyatining tashkiliy-pedagogik xususiyatlarini tahlil qilingan.

“Ijtimoiy-madaniy faoliyat tarixi qadimiydir. Uning tub ildizlari insoniyatning ilk uyushuvlari davriga borib taqaladi. Ilk uyushuv shakllari esa ilmiy adabiyotlarda tosh, bronza, temir davrlarida tarkib topganligi talqin etiladi. Bu davrda odamlarning madaniy ijtimoiylashuvi hayotni ta'minlash, uning barqaror davomiyligini belgilash zaruratidan yuzaga kelgan. Hayotning moddiy tomonlarini ta'minlash uchun odamlar bir-birlariga ov qilish, baliq tutish, ekin ekish, boshqa jinsni o'ziga jalb etishga erishishni turli o'yinlar, mashqlar tarzida o'rgatib borganlar. O'rgatish uzluksiz, doimiy davom etgan. O'rgatish uzluksizligi va doimiyliги esa ta'limning alohida soha sifatida shakllanishiga sabab bo'lgan”.¹ Demak, ijtimoiy-madaniy faoliyat ta'limning asosi bo'lgan deyish ham mumkin.

Ijtimoiy-madaniy faoliyatning pedagogik asoslari – bu odamlarning ijtimoiy-madaniy faoliyati jarayonida o'rganish, tarbiyalash va rivojlanish jarayonlarining xususiyatlarini ochib beruvchi bilimlar majmuasi. Ijtimoiy-madaniy faoliyat jarayonida ta'lim – umumiy, madaniy va maxsus bilimlarni tarqatish, hayot va muvaffaqiyatli mehnat uchun zarur bo'lgan malaka va ko'nikmalarni rivojlantirish uchun tashkil etilgan maqsadli faoliyat. Yangi bilim, ko'nikma va malakalar bilan boyitish maxsus mashg'ulotlarda, mashqlar paytida ham, mustaqil ravishda madaniy va badiiy tasvirlar misolida amalga oshiriladi. Bunday tadbirlar quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- 1) maqsadga muvofiqligi;
- 2) ko'p qirraliligi;
- 3) faol o'zaro ta'siri;
- 4) ijodiy yo'naltirilganligi;
- 5) oddiydan murakkabga yo'naltirilganligi;
- 6) ishtirokchilarning yuqori motivatsiyasi.

Ijtimoiy-madaniy faoliyat – shaxsni ijtimoiy-madaniy ta'lim tizimiga jalb etish va erkin ijodkorlik yo'li bilan har tomonlama kamol toptirishning ijtimoiy-pedagogik jarayoni bo'lib, buning natijasida odamlarning yangi, ijtimoiy ahamiyatga ega fazilatlari, madaniy qadriyatlar, yangilangan madaniy muhit vujudga keladi. Bu jamoa miqyosidagi ijodiy jarayon bo'lib, ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish hamda jamoa o'rtasidagi hamjihatlikni ta'minlash maqsadida amalga oshiriladi. U madaniy tadbirlar, ta'lim dasturlari, ilmiy-tadqiqot ishlari, ko'ngillilar (volontyorlik), loyihalar (jamoaviy loyihalar, ijtimoiy loyihalar va startap loyihalar va xokazo), shuningdek, ijtimoiy integratsiyani rivojlantirish va aholining turli guruhlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan tadbirlarni tashkil etishni o'z ichiga oladi.

Professor V.E.Triodin ijtimoiy-madaniy faoliyat haqida gapirar ekan, u o'z mohiyatiga ko'ra “inson – ijodiy xususiyatga ega bo'lib, unga xos bo'lgan salohiyatni har tomonlama ochib berishga, uni takomillashtirishga qaratilganligini

¹ Бекмуродов М., Умаров А., Қорабоев У. ва бош. Ижтимоий маданий фаолият тарихи, назарияси ва амалиёти. – Т.: 2016. – 216 б.

ta'kidlaydi. Shu ma'noda ijtimoiy-madaniy faoliyat ta'lim faoliyati bo'lib, shunga ko'ra bu jarayonning nazariyasi ta'rifiga ko'ra pedagogikadir."¹ Ijtimoiy-madaniy faoliyat amaliyoti bilan pedagogika fani o'rtasida bog'liqlik mavjud. Ushbu aloqani aniqlashtirish zarurligi klassik olimlar tadqiqotlarida ham ta'kidlangan. Masalan, M.A.Ariarskiy ("Pedagogik madaniyatshunoslik"), Yu.A.Strelsov ("Erkin pedagogika"), V.E.Triodin ("Madaniyat pedagogikasi") va boshqalar ishlarida ko'rish mumkin. Professor M.A.Ariarskiy ijtimoiy-madaniy faoliyatning tabiati va mohiyati haqida fikr yuritib, uch qismli tushunchalar tizimini quradi: "ijtimoiy-madaniy vaziyat", "ijtimoiy-madaniy soha", "ijtimoiy-madaniy muhit"; "ijtimoiy-madaniy faoliyat", "ijtimoiy-madaniy faollik", "ijtimoiy-madaniy ijod"; "ijtimoiy-madaniy ta'lim", "ijtimoiy-madaniy ma'naviyat".²

Ijtimoiy-madaniy faoliyat pedagogik xususiyatga ega. Uning vazifasi shaxsni ijtimoiylashtirish va individuallashtirish jarayonlarini tartibga solishdan iborat. Ya'ni, ijtimoiy tarbiya va rivojlanishda bo'sh vaqt faoliyati shakllarida amalga oshiriladigan va quyidagi madaniy-ma'rifiy vazifalarni hal qilishga qaratilgan:

a) insonni madaniyat boyliklari bilan tanishtirish, kishilarning qadriyat yo'nalishlarini shakllantirish va ma'naviy ehtiyojlarini "yuksaltirish";

b) insonning bo'sh vaqtini o'tkazish sohasidagi ijtimoiy faolligini, tashabbuskorligini rag'batlantirish. Shuningdek, uning bo'sh vaqtini yaxshilash, ya'ni jismoniy va ma'naviy salomatlikni saqlash, o'zini-o'zi takomillashtirish uchun bo'sh vaqtini oqilona, mazmunli va rang-barang tashkil etish qobiliyatini oshirish;

c) shaxsning qobiliyatlarini aniqlash va rivojlantirish, uning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish va ijobiy o'zini-o'zi tasdiqlash uchun sharoit yaratish.

Ijtimoiy-madaniy faoliyatda magistrant:

1) ijtimoiy va madaniy mahsulotlar, dam olish dasturlari va loyihalarini, shu jumladan innovatsion dasturlarni ishlab chiqadi;

2) ilmiy-tadqiqot ishlari bilan shug'ullanadi, yangi uslub va texnologiyalarni ishlab chiqadi, ushbu sohada tadqiqot va diagnostika ishlarini olib boradi;


3) strategik, iqtisodiy va moliyaviy, ijtimoiy-madaniy sohalarda boshqaruvni amalga oshiradi;

4) ta'lim muassasalarida maxsus badiiy-ijodiy fanlardan dars beradi.

O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistratura talabalarining ijtimoiy-madaniy faoliyatining tashkiliy-pedagogik xususiyatlari bir qancha muhim jihatlarni o'z ichiga oladi. Ushbu xususiyatlar talabalarga ularning akademik ta'limini to'ldiradigan, umumiy shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga hissa qo'shadigan ijtimoiy va madaniy tajribalarda ishtirok etish imkoniyatini berishga qaratilgan. Bu yerda asosiy tashkiliy-pedagogik xususiyatlardan ba'zilar muallif tomonidan ko'rsatilgan (1-rasm):

¹ Триодин В.Е. Теория социально-культурной деятельности: объект и предмет исследования // Социально-культурная деятельность: теория, технологии, практика: коллективная монография. – Челябинск: Челябинская государственная академия культуры и искусств, 2006. – Ч. 1., – С. 30-48

² Ариарский М.А. Педагогическая культурология. В двух томах. Т. 1. Методология и методика постижения культуры. – Санкт-Петербург: Концерт, 2012. – 400 с.



1-rasm. Ijtimoiy-madaniy faoliyatining tashkiliy-pedagogik xususiyatlari

O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistratura talabalari ijtimoiy-madaniy faoliyatining tashkiliy-pedagogik xususiyatlari oliy ta’lim tizimida muhim ahamiyatga ega. Ushbu faoliyat talabalarning ijtimoiy va madaniy ko‘nikmalarini rivojlantirish, jamoatchilik bilan aloqa o‘rnatish, hamkorlik qilish va ijtimoiy mas’uliyatni his qilish kabi ko‘plab jihatlarni o‘z ichiga oladi. Tashkiliy xususiyatlar o‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistratura talabalari ijtimoiy faoliyatlarini tashkil etishda, ularning ishtirokini ta’minlash, faoliyatlarni rejalashtirish va amalga oshirish, jamoa bilan ishlash, loyihalarni boshqarish kabi jarayonlar muhim ahamiyatga ega. Pedagogik xususiyatlar talabalarning ijtimoiy-madaniy faoliyatlari pedagogik metodlar, o‘qitish usullari va ta’lim jarayonidagi innovatsion yondashuvlar bilan bog‘liq. Bu talabalarning meta-kompetensiyalarini rivojlantirishga, ya’ni ijodiy fikrlash, muammolarni hal qilish qobiliyati va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Dissertatsiyaning “**Ijtimoiy-madaniy faoliyatda o‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistratura talabasi meta-profilini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari**” deb nomlangan ikkinchi bobida o‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistratura talabalarining meta-kompetensiyasi takomillashtirilgan hamda kasbiy kompetentlikni rivojlantirishning integrativ tuzilmasi va tarkibiy-mazmuniy komponentlari aniqlashtirilgan. Shuningdek, ijtimoiy-madaniy faoliyatga tayyorlashda o‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistratura talabalarining meta-profilini kompetentli yondashuv asosida takomillashtirilgan, meta-profilni shakllantirish texnologiyasining didaktik komponenti mazmuni va tashkiliy xususiyatlari yoritilgan, meta-profilni baholash mezonlari va shakllantirish usullari ishlab chiqilgan.

Meta-profil – professor-o‘qituvchilar, ish beruvchilar va talabalar bilan maslahatlashuvlar tahlili va kompetensiyalar ro‘yxati asosida shakllantiriladigan va turli mezonlar (o‘quv fanlari, kasbiy faoliyat turlari va boshqalar)ga asoslanadigan, muayyan fan sohasini aniqlaydigan kompetensiyalar.

Meta-kompetensiyalar – bu mavjud ko‘nikmalardan samarali foydalanish, o‘zgaruvchan sharoitlarga moslashish va o‘zini doimiy ravishda takomillashtirish imkonini beradigan shaxsiy fazilatlar.

Tadqiqotning mazkur bobida o‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistratura talabasining meta-profilini quyidagicha takomillashtirdik:



2-rasm. O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistratura talabasining meta-profil


O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistranti uchun kasbiy kompetensiya chuqur bilim, analitik va amaliy ko‘nikmalarini rivojlantirishni taqozo etadi. Turli ilmiy izlanishlarga tayanib, biz o‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistrantining kasbiy kompetensiyasining yaxlitligini quyidagi komponentlarga ajratamiz:

1-jadval

O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistratura talabasining kasbiy kompetensiyasi tarkibiy qismlarining mazmuni

O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistratura talabasining kasbiy kompetensiyasi komponentlari	O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistratura talabasining kasbiy kompetensiyasi komponentlari mazmuni
Kognitiv komponent — bilimlarda qayd etilgan kasbiy faoliyatidagi tajriba.	Nazariy bilimlar, intellektual salohiyat va tafakkur darajasiga asoslangan, kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirishidagi muhim jihat. Tilshunoslik nazariyasi bo‘yicha bilimlar, adabiyot nazariyasi va tarixidan bilimlar, ilmiy-tadqiqot faoliyati uchun zarur bilimlar.
Funksional komponent — ta‘lim jarayonida mavjud bo‘lgan kasbiy usullarini (uskunalar, operatsiyalar va harakatlar tartibi to‘plami) amalga oshirish tajribasi, olingan yoki rivojlangan qobiliyat va ko‘nikmalarni hisobga olgan holda faoliyat.	Kasbiy faoliyatini amalga oshirishda zarur bo‘lgan amaliy bilim va ko‘nikmalar. Til va nutq malakalari, tahlil va tadqiqot ko‘nikmalari, pedagogik va didaktik ko‘nikmalar, lingvistik va adabiy masalalarni hal etish, muloqot strategiyalarini ishlab chiqish, matnlarni tahlil qilish, mantiqiy xulosa chiqarish, adabiy jarayonlarni o‘rganish va ularni ilmiy nuqtai nazardan baholash.
Kasbiy va shaxsiy komponent — bu kasbiy faoliyati bilan shaxsiy munosabatlar tajribasi (ichki tajriba, tushunish, mulohaza yuritish).	Kasbiy faoliyatining samaradorligiga ta‘sir qiluvchi professional muhim fazilatlar (tashkiliy, kuchli irodali, kommunikativ va ijodiy). O‘z-o‘zini takomillashtirish, kasbiy va shaxsiy rivojlanish usullariga ega bo‘lish.
Motivatsion komponent — kasbiy faoliyatiga motivatsion munosabat tajribasi (ma‘lum bir natijaga erishishni rag‘batlantiradigan ichki motivlar va munosabatlarning kuchi, barqarorligi va tabiati).	Umumiy qabul qilingan tegishli va barqaror motivatsion munosabatlar to‘plami: kasbiy qiziqish, ijodiy faoliyatga intilish, o‘zini rivojlantirish, ijtimoiy motivlar, ta‘lim va kasbiy faoliyatdagi yutuqlar, maqsadga yo‘naltirilgan motivlar, ma‘naviy kamolotga intilish.
Kommunikativ komponent — kasbiy faoliyatida kommunikativ munosabatlarni amalga oshirish tajribasi.	Kasbiy faoliyati doirasida samarali kommunikativ munosabatlarni o‘rnatish uchun zarur bo‘lgan bilimlar, malaka va ko‘nikmalar, konstruktiv xatti-harakatlar modellari va ssenariylari, qadriyatlar, shuningdek, kommunikativ fazilatlar va shaxslararo o‘zaro ta‘sir tajribasi.
Axborot-kommunikatsiya komponenti — zamonaviy axborot muhiti sharoitida axborotning o‘zaro ta‘siri tajribasi, shuningdek, kasbiy faoliyatida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish.	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasidagi nazariy bilim va ko‘nikmalar. Axborot resurslarini tahlil qilish, shuningdek, axborot va kommunikatsiya texnologiyalardan foydalangan holda kasbiy va tashkiliy-boshqaruv faoliyatini amalga oshirish bo‘yicha amaliy ko‘nikma va malakalar.

Magistratura talabasi meta-profilini shakllantirish texnologiyasining didaktik komponenti o‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistrantlari o‘rtasida kompetensiyalarni o‘rgatish va rivojlantirish uchun qo‘llaniladigan usullar, mazmun va tashkiliy xususiyatlar tushuniladi. Didaktik komponentning ba’zi asosiy jihatlarini ko‘rib chiqamiz (3- rasmga qarang):



3-rasm. Magistratura talabasi meta-profilini shakllantirish texnologiyasining didaktik komponenti

Magistratura talabasi meta-profilini shakllantirish natijalarini o‘lchash muammosi uning shakllanish mezonlari va darajalarini aniqlash muammosi bilan bog‘liq. Albatta, bu mezonlar tadqiqotchilar tomonidan kiritilgan ko‘rsatkichlar orqali keng ochib berilgan. Magistratura talabasi meta-profilini ta’rifi mazmunidan kelib chiqadiki, bu hodisani quyidagi mezonlar bo‘yicha o‘lchash maqsadga muvofiq: kognitiv, motivatsion, funksional, perseptiv-refleksiv. Buning uchun tizimli yondashuv qo‘llanildi, chunki tanlangan mezonlar o‘z navbatida tizimli shakllanishni tashkil qiladi.

2-jadval

O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistratura talabalarida meta-profilini shakllantirish mezonlari jadvali

Mezonlar	Ularning namoyon bo‘lish ko‘rsatkichlari	Diagnostika usullari
Motivatsion	Kasbiy ko‘nikmalarini egallash uchun motivning mavjudligi, kognitiv ehtiyoj	Savol, intervyu, individual suhbatlar, kuzatishlar, sotsiometriya
Kognitiv	Ilmiy-pedagogik tadqiqot va va tashkiliy-boshqaruv faoliyatini amalga oshirishda zarur bo‘lgan harakat vositalari va usullari haqidagi bilimlarning to‘liqligi va mustahkamligi	Shaxsiy suhbatlar, kuzatishlar, o‘z-o‘zini baholash kartalarini to‘ldirish, muammoni hal qilish rejasini tuzish va ma’lumot materialini tayyorlash, guruh ishini rejalashtirishda ishtirok etish
Funksional	Ta’lim-tarbiya jarayonlarining me’yoriy-huquqiy asoslarini o‘rganish, ularni tahlil etish, amalda qo‘llay va baholay olishi; tadqiqot uchun material yig‘ish, tahlil qilish va tadqiqot qilish ko‘nikmasiga ega	

	bo'lish; til va madaniyat muammolarin nutqning milliy-madaniy xususiyatlarini, lingvografik tahlil usul va yo'llarini farqlash; metodologiya va lingvodidaktikaga oid zamonaviy bilimlarni mustaqil egallash, metodik muammolarni oldindan anglash va yechim topa olish; ta'limning turli bosqichlarida mazkur fan yuzasidan namunali dars o'tish, turli tadbirlarni o'tkaza olish, zamon talabidagi darslarni tashkil qila olish, shuningdek, ta'limning turli bosqichlarida o'quvchilarning yosh xususiyatlariga qarab ta'lim-tarbiyaning metod va usullarini amaliyotga tatbiq eta olishi;	Intervyu, test savollari, amaliy topshiriqlar, portfoliolarni tahlil qilish va loyihalarini himoya qilish, amaliy qo'llash uchun topshiriqlar; muammoli vazifalar; o'z kuzatuvlarini (hissiy asosda) va o'z mulohazalarini (ratsional asosda) qo'llash vazifalari; hisobotlar taqdimoti, ijodiy loyihalar, multimedia taqdimotlari
Perseptiv-refleksiv	Boshqa odamning ichki dunyosini o'zini aks ettirish bilan anglash qobiliyati, o'zini-o'zi qadrlashning yetariligi, mas'uliyatni o'z zimmasiga olish qobiliyati	Mashg'ulotlarda javoblarni tahlil qilish va o'z-o'zini tahlil qilish; faoliyat monitoringi; intervyu olish; sotsiometriya; aloqa holatlarini tahlil qilish; munozaralarda ishtirok etish; guruh ishi; o'z-o'zini baholash kartalari

O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistratura talabalarining ijtimoiy-madaniy faoliyatda meta-profilni shakllantirish turli usullar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Quyida biz tomonidan ushbu meta-profilni rivojlantirish uchun samarali strategiyalar keltirilgan:

Amaliy tajriba: Magistratura talabalarini ijtimoiy-madaniy tadbirlarni tashkil etish va boshqarish bo'yicha amaliy tajribalar bilan ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Bu ularga tadbirlarni rejalashtirish va amalga oshirishda yetakchi rollarni belgilash, tadbir qo'mitalari bilan yaqindan ishlash yoki faoliyatning muayyan jihatlarini boshqarishni o'z ichiga olishi mumkin. Amaliy topshiriqlarda faol ishtirok etib, talabalar real hayot tajribasiga ega bo'ladilar va tashkiliy va boshqaruv qobiliyatlarini rivojlantiradilar.

Mentorlik va murabbiylik: Magistratura talabalariga ijtimoiy-madaniy faoliyatga rahbarlik qilish uchun tajribali murabbiylar yoki mentorlarni tayinlash ularning rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shishi mumkin. Bu murabbiylar talabalarga o'z malakalarini oshirishga yordam berib, jarayon davomida maslahat, fikr-mulohaza va yordam berishlari mumkin. Muntazam muloqotlar, munozaralar va murabbiylarning konstruktiv tanqidlari talabalarning o'sish sur'atlarini tezlashtirishi va samaradorligini oshirishi mumkin.

Seminar va trening dasturlari: Kasbiy kompetensiyalariga maxsus moslashtirilgan seminarlar va o'quv dasturlarini o'tkazish magistratura talabalarining malakasini oshirishning samarali usuli hisoblanadi. Ushbu seminarlar tadbirlarni rejalashtirish, loyihalarni boshqarish, yetakchilikni rivojlantirish, muloqot qobiliyatlari va jamoaviy ish kabi turli mavzularni qamrab olishi mumkin. Amaliy o'rganish tajribasini ta'minlash uchun amaliy mashqlar, amaliy tadqiqotlar va simulyasiyalar kiritilishi mumkin.

Hamkorlik va tarmoq: Magistratura talabalarini tegishli soha mutaxassislari bilan hamkorlik qilish va tarmoqqa kirishga undash ularning dunyoqarashi va bilimni kengaytirishi mumkin. Soha mutaxassislari, madaniy tashkilotlar yoki ijtimoiy ta'sir ko'rsatuvchilar bilan hamkorlik qilish talabalarga tajribali mutaxassislardan o'rganish va ijtimoiy-madaniy faoliyatning murakkabliklari haqida tushunchaga ega bo'lish imkonini beradi. Ushbu jarayon talabalarga professional munosabatlarni o'rnatishga va o'z tarmoqlarini kengaytirishga yordam beradi, bu esa kelajakdagi martaba imkoniyatlari uchun qimmatli bo'lishi mumkin.

Tadqiqot va tahlil: Tadqiqot va tahlil komponentlarini ijtimoiy-madaniy faoliyatga kiritish magistratura talabalarining ma'lumotlar to'plash, tanqidiy fikrlash va qaror qabul qilish bo'yicha malakalarini oshirishi mumkin. Ularga so'rovnomalar o'tkazish, tomoshabinlar afzalliklarini tahlil qilish yoki muayyan madaniy tadbirlarning ta'sirini baholash topshirilishi mumkin. Ushbu tadqiqotga yo'naltirilgan yondashuv talabalarga nazariy bilimlarni qo'llash va samarali tashkiliy va boshqaruv amaliyotlari uchun zarur bo'lgan tahliliy ko'nikmalarni rivojlantirish imkonini beradi.

Mulohaza va o'z-o'zini baholash: Magistratura talabalarini o'z tajribalari haqida fikr yuritishga va o'z-o'zini baholash mashqlari bilan shug'ullanishga undash ularning o'sishi va malakasini oshirish uchun zarurdir. Ushbu amaliyot talabalarga o'zlarining kuchli, zaif tomonlarini yanada rivojlantirishga muhtoj bo'lgan sohalarini aniqlashga yordam beradi, bu ularga doimiy takomillashtirish uchun maqsadlar qo'yish imkonini beradi.

Akademik o'quv dasturi bilan integratsiya: kasbiy kompetensiyalarni o'quv dasturiga kiritish o'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistratura talabalarini o'rtasida har tomonlama rivojlanishni ta'minlashning samarali usuli hisoblanadi. Ushbu ko'nikmalarni kurs ishlari, topshiriqlar va loyihalarga kiritish orqali talabalar o'zlarining nazariy bilimlarini amaliy ssenariylarda qo'llashlari mumkin.

Dissertatsiyaning **“Mustaqil ta'lim jarayonida o'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistratura talabalarini ijtimoiy-madaniy faoliyatga tayyorlash texnologiyalari”** deb nomlangan uchinchi bobida mustaqil ta'lim jarayonida o'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistratura talabalarini ijtimoiy-madaniy faoliyatga tayyorlashga qaratilgan pedagogik modeli hamda “Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ta'lim tizimidagi islohotlar”, “Ilmiy tadqiqot metodologiyasi” va “Kasbiy ma'naviyat” darslarining mustaqil ta'lim jarayonida meta-kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan “O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistratura talabalarini mustaqil ta'lim jarayonida ijtimoiy-madaniy faoliyatga tayyorlash” maxsus o'quv dasturi orqali loyihalarni rejalashtirish “Project Planning (PERT/CPM)” hamda MPRIORITY 1.0 dasturi asosida iyerarxik modellashtirish texnologiyalari haqida so'z yuritiladi.

Biz tomonidan ishlab chiqilgan magistratura talabalarini ijtimoiy-madaniy faoliyatga tayyorlash metodikasining pedagogik modeli tarkibiy va funksional turga mansub bo'lib, o'quv jarayonining yaxlitligi talabalariga muvofiq *motivatsion-maqсадli, nazariy-metodologik, kontent-texnologik, baholovchi-natijali* kabi o'zaro bir-biri bilan bog'liq bo'lgan bloklardan tashkil topgan (4-rasm).

Magistratura talabalarini ijtimoiy-madaniy faoliyatga tayyorlash metodikasining pedagogik modelini har bir blokining mazmunini ochib beramiz.

Motivatsion-maqsadli blok vaqtinchalik natija doirasida erishish mumkin bo'lgan natijani va modelning maqsad va vazifasini o'z ichiga oladi. Magistratura talabalarini ijtimoiy-madaniy faoliyatga tayyorlash uchun ta'lim, ularni amalga oshirish tamoyillar majmuasi va ilmiy yondashuvlar orqali amalga oshiriladi.

Biz magistratura talabalarini ijtimoiy-madaniy faoliyatga tayyorlash modelini ishlab chiqishda nazariy-metodologik blokda tizimli, kompetensiyaga asoslangan va kontekstli yondashuvlarni ajratib ko'rsatishni maqsadga muvofiq deb hisobladik.

Tizimli yondashuv bizga asosiy faoliyat tarkibiy qismlarini o'rganish, kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonining o'ziga xosligini tatqiq qilish va tavsiflash orqali ta'lim sohasida egallagan bilim, ko'nikma va malakalarga faol munosabatda bo'lishga yordam beradi.

Kompetensiyaga asoslangan yondashuv – shakllantirilgan kasbiy kompetensiyasining mazmunini aniqlash, tuzilmasini va kutilayotgan natijani tavsiflash imkonini beradi

Kontekstli yondashuv ta'lim mazmuni va shaklini kasbiy faoliyat mazmuni va shakliga imkon qadar yaqinlashtirish orqali magistratura talabalarining kasbiy kompetensiyasini ta'minlash maqsadida ularni kasbiy yo'naltirib o'qitish jarayonini kuchaytirishga imkon beradi.

Sanab o'tilgan yondashuvlar quyidagi tamoyillarda amalga oshiriladi:


Ilmiylik tamoyili ta'lim mazmunining zamonaviy fan va ta'limni ilmiy tashkil etish metodlariga mos kelishini bildiradi.

Osondan qiyinga, ma'lumdan noma'lumga, oddiydan murakkabga, uzoqqa yaqindan o'rganish kabi Ya.A.Komenskiy tomonidan shakllantirilgan *mavjudlik tamoyili* o'qitishda to'plangan bilimlardan foydalanishni o'z ichiga oladi. Bunda talabalarining individualligini hisobga olish, talabalarni maxsus va birlikdagi universallikning namoyon bo'lishiga material topshirishda e'tiborni jalb qilish maqsadga muvofiqdir.

Ta'limning *kasbga yo'naltirilganlik tamoyili* umumiy ilmiy fanlarni o'qitishga amaliy materialni taqdim etishning turli darajalarida maksimal kiritish va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish elementlari bo'lgan maxsus kurslarni o'quv jarayoniga kiritishga qaratilgan.

Mustaqillik va faollik tamoyili magistratura talabalarining bilish faolligini namoyon etishga qaratilgan.

Modelning mazmun bloki magistratura ta'lim dasturini amalga oshirishda talabalarining ijtimoiy-madaniy faoliyatga tayyorlashni bosqichma-bosqich shakllantirishdan iborat. Kasbiy ko'nikmalarini shakllantirishning belgilangan mezonlari va darajalari nafaqat ko'rib chiqilayotgan ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o'quv jarayonining samaradorligi to'g'risida ma'lumot olish, mutaxassislar tayyorlashning muayyan bosqichida buning uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarining shakllanishini baholash, balki talabalarni tashkiliy-boshqaruv subyekti sifatida shakllantirish dinamikasini kuzatish imkonini beradi.



Natija: Magistratura talabalarini ijtimoiy-madaniy faoliyatga tayyorlash

4-rasm. Magistratura talabalarini ijtimoiy-madaniy faoliyatga tayyorlash modeli

Baholovchi-natijali bosqichi kasbiy va meta-kompetensiyalarni shakllantirish mezonlari va ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi. Mezon – kasbiy kompetensiyasi tarkibiy qismlar to'plami sifatida: motivatsion, kognitiv, funksional, perseptiv-refleksiv.

Model, muammoning to'liq yechimi deb da'vo qilmasdan, kompetensiyalarni shakllantirish jarayonini tushunish, jarayonning kamchiliklari va afzalliklarini tahlil qilish va shuning uchun uni tuzatish imkonini beradi.

Hozirgi taraqqiyotning asosiy maqsadlaridan biri har tomonlama yetuk, raqobatbardosh, qo'yilgan muammoni mustaqil hal qilish layoqatiga ega, o'z ustida muntazam ijodiy ishlab boradigan mutaxassislar tayyorlashdir. Bu xususiyatlarga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlashda mustaqil ishlarni tashkil qilish alohida o'rin tutadi, chunki axborot va bilimlar doirasi jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan

hozirgi kunda hamma ma'lumotlarni faqat dars mashg'ulotlarida berib bo'lmaydi. Qo'yilgan muammo va vazifalar bo'yicha ma'lum yechimga kelish hamda uning optimal variantini tanlash uchun kerakli bo'lgan mustaqil fikrlash ko'nikmasi mustaqil ijodiy ishlash jarayonida shakllanadi va mustahkamlanib boradi. Binobarin, "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida" kadrlar tayyorlashdagi mavjud muammolar qatorida "talabalarda tanqidiy fikrlash, axborotni mustaqil izlash va tahlil qilish ko'nikmalari shakllantirilmagan"¹ i alohida ta'kidlangan. Shundan kelib chiqib, xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash strategik maqsad sifatida belgilab olindi.

Mustaqil ta'lim – o'quv materialini mustaqil o'zlashtirish, murakkablik darajasi turlicha bo'lgan topshiriqlar, amaliy vazifalarni auditoriyada hamda auditoriyadan tashqarida ijodiy va mustaqil bajarish asosida nazariy bilim, amaliy ko'nikma hamda malakalarni shakllantirishga qaratilgan tizimli faoliyat.

Talabalarni mustaqil va ijodiy faoliyatga yo'naltirish, ularni zarur bilim va ko'nikmalarni egallashga bo'lgan mas'uliyatini oshirish, oliy ta'limda belgilangan ma'lum bir me'yorlarni qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Bu borada zarur qadamlar qo'yildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 31-dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 824-son Qarori bilan tasdiqlangan "Oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi to'g'risida nizom"da mustaqil ishlarga ajratiladigan soatlar miqdori oshirilib, uning magistraturada 60-70 foizni tashkil etishi belgilab qo'yildi. Belgilangan mazkur tartib oliy ta'lim muassasalarida talabalar mustaqil ishini samarali tashkil etish va nazorat qilish mexanizmini tubdan takomillashtirishni taqozo etmoqda.


Mustaqil ta'limni tashkil etish kredit-modul tizimining muhim tarkibiy qismidir. Bu tizimning bosh g'oyasi shuki, "o'rganishga o'rgatish", "bajarishga o'rgatish" mustaqil ta'lim orqali amalga oshadi. Chunki kredit to'plash va ko'chirishning Yevropa tizimi talablariga ko'ra, modullar bo'yicha o'quv yuklamasining 60 foizi mustaqil ta'limdan iborat bo'lishi lozim.

Tadqiqotimiz doirasida mustaqil ta'lim jarayonida meta-kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan o'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistratura yo'nalishi 1-kursda o'qitiladigan majburiy fanlar blokidagi "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida ta'lim tizimidagi islohotlar", "Ilmiy tadqiqot metodologiyasi" hamda uzviy davomi sifatida 2-kursda o'qitiladigan majburiy fanlar blokidagi "Kasbiy madaniyat" fanlari mazmuniga singdirilgan **"O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistratura talabalarini mustaqil ta'lim jarayonida ijtimoiy-madaniy faoliyatga tayyorlash"** maxsus kurs dasturi ishlab chiqildi.

¹ "Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида" Ўзбекистон Республикаси Президенти Фармони. 2019 йил 8 октябрь, ПФ-5847-сон

Ushbu maxsus kurs orqali loyihalarni rejalashtirish “Project Planning (PERT/CPM)” hamda MPRIORITY 1.0 dasturi asosida iyerarxik modellashtirish texnologiyasi takomillashtirildi.

“O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistratura talabalarini mustaqil ta’lim jarayonida ijtimoiy-madaniy faoliyatga tayyorlash” maxsus kursi bo‘limlari:



Pedagogik faoliyatda loyihalashga o‘rgatish texnologiyalariga alohida urg‘u beriladi. Loyihalash jarayonida magistratura talabasining quyidagi sifatlari muhim o‘rin tutadi: eruditsiya, ijodkorlik, tasavvurning boyligi, intuitsiya, hissiy rivojlanganlik, mantiqiy fikrlash rivojlanganligi, texnik layoqat, texnologik qobiliyat, kreativ qobiliyat, reflektiv qobiliyat.

O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistratura talabalarining ijtimoiy-madaniy faoliyatda meta-kompetensiyalarini rivojlantirish uchun biror bir amaliy masalaning loyihasini ishlab chiqishi zarur. Quyida biz tomondan loyihalarni rejalashtirish masalasini QM dasturida yechish uchun “Project Management (PERT/CPM)” moduli takomillashtirildi. O‘z oldimizga loyihaning eng qisqa bajarilish muddatini topish, har bir ishning erta boshlanish va erta tugallanish vaqtini aniqlash, kritik ishlar ko‘lamini aniqlash, nokritik ishlarning mumkin bo‘lgan kechiktirish muddatlarini aniqlash, loyihaning berilgan muddatda yakunlanishi, oddiy va tezkor holat uchun loyihaning byudjetlari qiyosiy tahlilini amalga oshirishni maqsad qilib qo‘yildi.

Bunda jami bajarilishi kerak ishlarning minimal soni 15 tadan kam bo‘lmasligi kerak. Kerakli ma’lumotlar asoslangan bo‘lishi kerak. Ishni bajarishda albatta quyidagi ma’lumotlardan foydalanish zarur: ishlar, bajarilish tartibi, ishlarni bajarilishining pessimistik, odatiy va optimistik muddatlari, ishlarning bajarilish xarajatlari, ishlarning tezkor bajarilish muddatlari va xarajatlari.

Loyiha nomi: Respublika miqyosida yosh olimlar uchun “Tadqiqot metodologiyasi” vorkshop akademik tadbirni o‘tkazish loyihasi.

Vorkshop rejasini ishlab chiqish, unga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazishga oddiy holatda 36 kun vaqt va 5 mln. 600 ming so‘m xarajat ketishi mo‘ljallangan. Optimistik muddatda 23 kun va 7 mln. 350 ming, pessimistik muddatda 47 kun mo‘ljallangan.

Model №1. Loyiha rejasini kurishda quyidagi ma’lumotlarga asoslanildi: ishlar, bajarilish tartibi, ishlarning bajarilishi pessimistik, odatiy va optimistik muddatlari.

Ushbu loyihani rejalashtirish dasturimizda bajarilishi kerak bo‘lgan ishlar tartibini aniqladik, ishlarning bajarilishi muddatini xaftalarda belgilab oldik va ma’lumotlarni QM dasturiga kiritdik (ishlar, ishlar davomiyligi, ishlar tartibi). Jadvalda bajariladigan ishlar davomiyligining optimistik, pessimistik, odatiy qiymatlari va ketma-ketligi ko‘rsatib o‘tilgan.

3-jadval


Ishlarning bajarilish tartibi va muddati

Ish	Ishning tavsifi	Muddati (kun)			Ishlar tartibi	Odatiy vaqtda ishlarning bajarilish xarajatlari	Tezkor vaqtda ishlarning bajarilish xarajatlari
		Optimistik (tezkor vaqt) davomiyligi	Odatiy davomiyligi	Pessimistik davomiyligi			
A	Respublika miqyosida yosh olimlar uchun “Tadqiqot metodologiyasi” vorkshop akademik tadbirni o‘tkazish bo‘yicha reja-grafikni olish	1	1	1		-	-
B	Respublika miqyosida vorkshopni o‘tkazish bo‘yicha ishlar rejasini tuzib olish	1	2	3	A	-	-
C	Vorkshop o‘tkaziladigan yo‘nalishlarni aniqlab olish	1	2	3	B	-	-
D	Vorkshop ishtirokchilari ro‘yxatini shakllantirish	2	4	5	B	-	-
E	“Tadqiqot metodologiyasi” vorkshop akademik tadbir ishtirokchilarining sovg‘alari smetasi bo‘yicha ishlarni amalga oshirishga tayyorgalik	2	5	6	B, D	3000	4000
F	Ishlab chiqilgan dasturni chop etish	2	3	4	B	50	100
G	Ishtirokchilarning tayyorgarlik darajasini nazorat qilish	3	4	5	D	-	-
H	Vorkshop akademik tadbiriga oid bannerlar va ko‘rgazmali vositalarni tayyorlash	3	4	5	B	150	250
I	Vorkshop uchun kerakli multimedia vositalari bilan ta’minlash	1	2	3	B, C	300	400
J	Vorkshopni video va foto tasmaga yozishni tashkil etish	1	1	2	I	100	100

K	Vorkshop ishtirokchilari uchun tushlik tashkil etishga tayyorgarlik ko'rish	2	3	3	B, D	2000	2500
L	Vorkshopni o'tkazish	1	2	2	B, C, E, G, H	-	-
M	Yakuniy qismni tashkil etish: tabrik va taqdirlash	1	1	1	E, I, L	-	-
N	Vorkshop yakuni bo'yicha hisobot tayyorlash	1	1	2	L, M	-	-
O	Hisobot berish va ommaviy axborot vositalarida e'lon qilish	1	1	1	N	-	-

Activity	Optimistic time	Most Likely time	Pessimistic time	Predecessor 1	Predecessor 2	Predecessor 3	Predecessor 4	Predecessor 5	Predecessor 6	Predecessor 7	Activity	Activity time	Early Start	Early Finish	Late Start	Late Finish	Slack	Standard Deviation
Project											Project	16,67						,94
A	1	1	1								A	1	0	1	0	1	0	0
B	1	2	3	A							B	2	1	3	1	3	0	,33
C	1	2	3	B							C	2	3	5	9,33	11,33	6,33	,33
D	2	4	5	B							D	3,63	3	6,63	3	6,63	0	,5
E	2	5	6	B	D						E	4,67	6,63	11,5	6,63	11,5	0	,67
F	2	3	4	B							F	3	3	6	13,67	16,67	10,67	,33
G	3	4	5	D							G	4	6,63	10,63	7,5	11,5	6,7	,33
H	3	4	5	B							H	4	3	7	7,5	11,5	4,5	,33
I	1	2	3	B	C						I	2	5	7	11,33	13,33	6,33	,33
J	1	1	2	I							J	1,17	7	8,17	16,5	16,67	8,5	,17
K	2	3	3	B	D						K	2,83	6,63	9,67	13,83	16,67	7	,17
L	1	2	2	B	C	E	G	H			L	1,83	11,5	13,33	11,5	13,33	0	,17
M	1	1	1	E	I	L					M	1	13,33	14,33	13,33	14,33	0	0
N	1	1	2	L	M						N	1,17	14,33	15,5	14,33	15,5	0	,17
O	1	1	2	M							O	1,17	15,5	16,67	16,5	16,67	0	,17


5-rasm. QM dasturida ishlar, ishlar davomiyligi, ishlar tartibi



6-rasm. Gantt grafi (Gantt chart (Early and Late times))

Grafikda kechiktirib bo'lmaydigan kritik ishlar (qizil chiziqlarda) va ular bir vaqtda parallel olib borilishi mumkin bo'lgan nokritik ishlar (ko'k chiziqlarda) bajarilish ketma-ketligi keltirilgan. Masalan, A ishning o'rtacha davomiyligi 1 kunni tashkil etgan. C, F, H nokritik ishlar B kritik ish bilan bir vaqtda bajariladi. Zahira vaqti nolga teng ishlar – A, B, D, E, L, M, N, O. Nokritik ishlar va ularni zahiradagi vaqti: C, F, G, H, I, J, K – nokritik ishlar, ya'ni kechiktirish mumkin bo'lgan ishlar. Masalan, K ishning zahira vaqti 7 kunni tashkil etgan.

Grafikda loyihani bajarish bo'yicha belgilangan kritik ishlar ketma-ketligi va ishlarning bir-biri bilan bog'liqligi ko'rsatilgan.



7-rasm. 95% ishonchlilik bilan loyihaning bajarilish oralig'i

Demak, loyiha rejasining asosiy natijaviy jadvalidan loyihaning bajarilish muddati 95% ishonchlilik bilan 16,6 kun ekanligini, 99 % ± 3 kun oralig'ida bajarilish ehtimoli jadvali. Loyihaning o'rtacha bajarilish muddati 16,6 kunni tashkil etadi. Shunda 95% ishonchlilik bilan loyihaning bajarilish muddati grafikda ko'rsatilganidek, 14,82 va 18,51 kun oralig'ida bo'ladi.

Barcha ishlar asosida yakuniy xulosa: Umumiy xulosa qilib aytadigan bo'lsak, "Tadqiqot metodologiyasi" vorkshop akademik tadbir o'tkazish loyihasining bajarilishi o'rtacha 16,6 kunni tashkil etadi. 95 % ehtimollik bilan loyihaning bajarilishi 14,82 va 18,51 kun oralig'ida bajariladi. Demak, ushbu loyihani amalga oshirish uchun ishlarni u o'tkaziladigan kundan kamida 16,6 kun oldin rejalashtirish lozim. Demak, "Tadqiqot metodologiyasi" vorkshop akademik tadbirni o'tkazish uchun rejalashtirilgan jami 15 ta ishlardan 8 tasi kritik ishlardir. Ya'ni mazkur 8 ta kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni bajarish uchun zarur vaqt loyihaning bajarish vaqti ham hisoblanadi. Bizda esa bu ko'rsatkich 16 kunni tashkil etadi. Qolgan 7 ta nokritik ishlar boshqa kritik ishlar bilan bir vaqtda bajariladi. Ushbu ishlar uchun rejalashtirilgan xarajatlar ham shu davrda amalga oshiriladi. Ushbu loyihamizning xarajatlari summasi 5 mln. 600 ming so'mni tashkil etadi. Agar loyihani bajarish erta boshlansa, xarajatlar 13 kun mobaynida amalga oshiriladi. Agar kech boshlansa 9 kun mobaynida amalga oshirilgan ekan. Ammo loyihaning erta yoki kech boshlanishi loyihaning umumiy xarajatlar summasiga ta'sir o'tkazmaydi.

Tadqiqot ishida tadbir rejasini amalga oshirish bo'yicha ishlar, ishlarning normal muddati, ishlarning tezkor muddati, ishlarning normal narxi, ishlarning tezkor narxi, bir kunlik ishning tezkor narxi, ishning tezkor holatda bajarilgan kunlari soni va ishning tezkor holatda bajarilgani uchun qo'shimcha narxlari keltirilgan.

Shuningdek, tadqiqot ishida berilgan sxema asosida ***"Til o'rganishda lingvomadaniy omillarning o'rni"*** mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasining loyihasini ishlab chiqish texnologiyasi QM dasturida ishlash tartibi takomillashtirilgan.

Tadqiqotimiz doirasida o'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistratura talabalarining mustaqil ta'lim jarayonida iyerarxik modellashtirish metodikasi takomillashtirildi. Iyerarxiyalar tahlili usuli – murakkab masala yuzasidan qaror qabul qilishda qo'llaniladigan tizimli tahlilga asoslangan matematik instrument hisoblanadi. Ushbu usul foydalanuvchi uchun har bir mezonning ahamiyatini hisobga olgan holda barcha mezonlar bo'yicha har bir muqobil qiymatlarining yig'indisidan foydalanadigan eng ishonchli umumlashtiruvchi mezonni hisoblash imkonini beradi. Iyerarxiyani tahlil qilish usulidan foydalanish magistratura talabalarining meta-kompetensiyalarini rivojlantirishda qaror qabul qilish jarayonini sezilarli darajada osonlashtiradi. Bu dastur orqali kadr tanlashdagi ustuvor omillar va ularning reytingini aniqlash, kelgusida qaysi omillarga e'tibor qaratish lozimligini aniqlash hamda istiqboldagi rejalarni belgilash maqsadida iyerarxik modellashtirishdan foydalanilganda qarorlar qabul qilish jarayonini osonlashtiradi.

Dissertatsiyaning to'rtinchi bobi **“Mustaqil ta'lim jarayonida magistratura talabalarini ijtimoiy-madaniy faoliyatga tayyorlash metodikasi samaradorligi”** deb nomlangan. Ushbu tadqiqotning nazariy bosqichida muammo shakllantirildi, tadqiqotning maqsadi, obyekti va predmeti, uning vazifalari va ilmiy yangiligi aniqlandi, ilmiy adabiyotlar tahlil qilindi, magistratura talabasining ijtimoiy-madaniy faoliyatga tayyorlash xususiyatlari ko'rib chiqildi hamda pedagogik modelni loyihalash bosqichi bizga tajriba-sinov ishlarni bajarishga imkon berdi.

Tajriba-sinov jarayonida 359 nafar oliy ta'lim muassasalarining magistratura bosqichi talabalarini (1-2 kurs) ishtirok etdilar. Jumladan, Farg'ona davlat universiteti, Andijon davlat pedagogika instituti, O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti, Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida 2021-2023 yillarda tahsil olgan magistrlar o'rtasida uch bosqichda tashkil etildi.

1. Asoslovchi tajriba bosqichida magistratura talabalarini tayyorlash jarayonida ularning ijtimoiy-madaniy faoliyatda kasbiy va meta-kompetensiyalarini rivojlantirish, ularda ijodkorlikka oid ko'nikma va malakalarning shakllanganlik darajasini aniqlashga yo'naltirilgan pedagogik faoliyat tashkil etildi. Ko'zda tutilgan maqsadga erishishda magistratura bosqichida tahsil olayotgan talabalarning o'quv faoliyati kuzatildi, ular bilan suhbat, anketa so'rovlari o'tkazildi. Bu ishlar tadqiqot yo'nalishi va dasturini belgilash imkonini berdi. Yetakchi olimlar va tajribali pedagoglarning tadqiqot mavzusiga oid ilmiy ishlari tahlil qilindi. Kompetentli yondashuv asosida magistratura talabalarini ijtimoiy-madaniy faoliyatga tayyorlash maqsadida amaliy muammoli topshiriqlar mazmuni va ularni bajarish metodlari, shakllari va vositalari belgilandi.

2. Shakllantiruvchi tajriba bosqichida biz tomondan tavsiya etilgan ko'rsatma, yo'riqnoma, metodik ishlanmalar va muammoli vaziyatli topshiriqlarni ishlab chiqish shakllari asosida amaliy-metodik faoliyat tashkil etildi. Talabalar faoliyatini bevosita va bilvosita pedagogik kuzatish, ular ishtirokida amaliy treninglarni tashkil etish, suhbat, anketa so'rovi va amaliy ijodiy ishlashga qaratilgan metodlar yordamida ularda tashkilotchilik va boshqaruvga oid ko'nikma va malakalar shakllantirildi.

3. Ta'kidlovchi tajriba bosqichida magistratura talabalarini ijtimoiy-madaniy faoliyatga tayyorlashni rivojlantirish maqsadida muammoli vaziyatli topshiriqlar tashkil etilib, ularda o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini boshqarishga oid ko'nikma va malakalarning shakllanganlik darajasi muammoli vaziyatli topshiriqlar asosida tahlil qilindi va qo'llanilgan metodikaning samaradorligi, shuningdek ularda meta-kompetensiyalar bo'yicha ko'nikma va malakalarning shakllanganlik darajasi aniqlandi.

Tajriba-sinov ishlarining muvaffaqiyatli kechishi quyidagi obyektiv va subyektiv omillarning mavjudligi hisobiga ta'minlandi:

- 1) magistratura talabalarida ijtimoiy-madaniy faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan metodik shart-sharoitlarning yaratilganligi;
- 2) oliy ta'lim muassasalarining yetarli moddiy-texnik bazaga egaligi;

3) o‘quv va tarbiyaviy ishlar jarayonida zamonaviy texnik vositalar hamda axborot texnologiyalaridan unumli foydalanilganligi;

4) magistratura talabalarining kompetentli yondashuv asosida kasbiy-pedagogik ijodkorlikka va meta-kompetensiyalarga oid ko‘nikma hamda malakalarini rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratilganligi;

5) talabalarining ijtimoiy-madaniy faoliyatini rivojlantirish ishiga malakali, yuksak pedagogik mahoratga ega pedagoglarning jalb etilganligi;

6) talabalarining elektron kutubxonalardan foydalanish imkoniyatlariga egaliklari va hokazo.

Bizning ilmiy tadqiqot ishimizda magistratura talabalarining ijtimoiy-madaniy faoliyatni rivojlantirishga oid pedagogik tizimning samaradorlik darajasini statistik tahlili asosida tajriba-sinov ishlari olib borildi.

Tadqiqot doirasida olib borilgan tajriba-sinov ishlari natijasi sonli ma‘lumotlar asosida matematik-statistika usullaridan foydalanib, chuqur qiyosiy tahlil qilindi.

Masalaning qisqacha mohiyati quyidagilardan iborat: ikkita bosh to‘plam berilgan bo‘lsin. Biri tajriba guruhidagi magistratura talabalarining ijtimoiy-madaniy faoliyatda kasbiy va meta-kompetensiyalarini rivojlantirish va ikkinchisi nazorat guruhidagi magistratura talabalarining ijtimoiy-madaniy faoliyatda kasbiy va meta-kompetensiyalarini rivojlanganligini natijalari. Natijalar normal taqsimotga ega deb hisoblanadi. Bunday faraz o‘rinlidir, chunki normal taqsimotga yaqinlashish shartlari sodda bo‘lib, ular bajariladi.


6-jadvalga asosan magistratura talabalarining tajriba va nazorat guruhlaridagi o‘zlashtirishlari samaradorligini ko‘rsatuvchi H_1 gipoteza va unga zid bo‘lgan H_0 gipoteza tanlandi va quyidagi jadvalda aks ettirildi:

6-jadval

Magistratura talabalarining ijtimoiy-madaniy faoliyatda kasbiy va meta-kompetensiyalarini rivojlanganligini aniqlash bo‘yicha tajriba davomidagi o‘zlashtirish natijalari

OTMLar nomlari	t/s	Nazorat guruhi						t/s	Tajriba guruhi					
		Past	%	O‘rta	%	Yuqori	%		Past	%	O‘rta	%	Yuqori	%
FarDU	46	10	21,7	18	37,5	17	36,9	46	18	39,1	23	50	5	10,9
ADPI	48	11	22,9	20	41,7	18	37,5	48	18	37,5	24	50	6	12,5
O‘zJOKU	56	12	21,4	23	41,1	21	37,5	57	22	38,6	28	49,1	7	12,3
TDSHU	29	6	20,7	12	41,4	11	37,9	29	11	37,9	14	48,3	4	13,8
Jami	179	39	21,8	73	40,8	67	37,4	180	69	38,3	89	49,4	22	12,2

Bu tanlanmalarga mos kelgan diagramma quyidagicha ko‘rinishni oladi:



10-rasm. Tajriba-sinov o'tkazilgan OTMLar bo'yicha tajriba yakunidagi umumiy natijalar diagrammasi

Yuqoridagi natijalarga asoslangan holda matematik statistik tahlil qilinib, tajriba yakunidagi holat uchun topilgan natijalardan o'rtacha kvadratik chetlanish, tanlanma dispersiya ko'rsatkichlari, Studentning tanlanma mezoni, Student mezoni asosida erkinlik darajasi va ishonchli chetlanishlari topildi (jadvalda 2-satr o'quvchilar uchun)

\bar{X}	\bar{Y}	S_x^2	S_y^2	C_x	C_y	$T_{x,y}$	k	$X_{n,m}^2$	Δ_x	Δ_y
2,26	1,85	0,43	0,57	2	3	6,11	348,1	7,8	0,096	0,011

Yuqoridagi natijalarga asoslanib tajriba-sinov ishlarining sifat ko'rsatkichlarini hisoblaymiz.

$$K_{yc\bar{o}} = \frac{(\bar{X} - \Delta_x)}{(\bar{Y} + \Delta_y)} = \frac{2,26 - 0,096}{1,85 + 0,11} = \frac{2,164}{1,96} = 1,104 > 1;$$

$$K_{o\bar{o}\bar{o}} = (\bar{X} - \Delta_x) - (\bar{Y} - \Delta_y) = (2,26 - 0,096) - (1,85 - 0,11) = 2,164 - 1,74 = 0,424 > 0;$$

Olingan natijalardan o'qitish samaradorligini baholash mezoni birdan kattaligi va bilish darajasini baholash mezoni noldan kattaligini ko'rish mumkin. Bundan ma'lumki, tajriba guruhidagi tajriba yakunidagi o'zlashtirish nazorat guruhidagi tajriba yakunidagi o'zlashtirishdan yuqori ekan.

Bundan shuni aytish mumkinki, tajriba guruhining ko'rsatkichi nazorat guruhinikiga nisbatan 13,66% ga oshganligini ko'rish mumkin.

O'tkazilgan statistik tahlillardan tajriba guruhida qo'llanilgan magistratura talabalarining ijtimoiy-madaniy faoliyatda kasbiy va meta-kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorli bo'lib, o'tkazilgan tajriba-sinov tahlillari uni Respublikamiz miqyosida ommalashtirish mumkinligiga asos yaratadi.

XULOSA

O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistratura talabalarining ijtimoiy-madaniy faoliyatga tayyorlash metodikasini takomillashtirishning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, tadqiqot natijalari asosida quyidagi **xulosalarga** kelindi:

1. Ijtimoiy madaniy faoliyat – shaxsni ijtimoiy-madaniy ta’lim tizimiga jalb etish va erkin ijodkorlik yo‘li bilan har tomonlama kamol toptirishning ijtimoiy-pedagogik jarayoni bo‘lib, buning natijasida odamlarning yangi, ijtimoiy ahamiyatga ega fazilatlarini, madaniy qadriyatlar, yangilangan madaniy muhit vujudga keladi. Bu jamoa miqyosidagi ijodiy jarayon bo‘lib, ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish hamda jamoa o‘rtasidagi hamjihatlikni ta’minlash maqsadida amalga oshiriladi.

2. Bilimlarning tezlik bilan yangilanishi, texnika va texnologiyaning kun sayin rivojlanib borishi natijasida magistratura talabalaridan zamonaviy sharoitlarga moslashish ko‘nikmasiga ega bo‘lish hamda yangi bilimlarga intilishni talab etmoqda. Bu esa ularni mustaqil izlanishga va ishlashga, kasbiy hamda hayotiy muammolarni mustaqil yechib unga ijodiy yondashishga o‘rgatish zaruriyatini tug‘dirmoqda. Shu boisdan ham, hozirgi kunda mustaqil fikrlovchi erkin shaxs konsepsiyasini amalga oshirish uzluksiz ta’lim tizimining bosh vazifasi hisoblanib, bunda kompetensiyaviy yondashuv asosida magistratura talabalarining ijtimoiy-madaniy faoliyatida meta-kompetensiyalarini (soft skills) takomillashtirish va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

3. O‘zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi magistratura talabalarining ijtimoiy-madaniy faoliyatining tashkiliy-pedagogik xususiyatlari oliy ta’lim tizimida muhim ahamiyatga ega. Ushbu faoliyat talabalarning ijtimoiy va madaniy ko‘nikmalarini rivojlantirish, jamoatchilik bilan aloqa o‘rnatish, hamkorlik qilish va ijtimoiy mas’uliyatni his qilish kabi ko‘plab jihatlarni o‘z ichiga oladi. Tashkiliy xususiyatlar magistratura talabalarining ijtimoiy faoliyatlarini tashkil etishda, ularning ishtirokini ta’minlash, faoliyatlarni rejalashtirish va amalga oshirish, jamoa bilan ishlash, loyihalarni boshqarish kabi jarayonlar muhim ahamiyatga ega. Pedagogik xususiyatlar talabalarning ijtimoiy-madaniy faoliyatlarini pedagogik metodlar, o‘qitish usullari va ta’lim jarayonidagi innovatsion yondashuvlar bilan bog‘liq. Bu talabalarning ijodiy fikrlashini, muammolarni hal qilish qobiliyatini va jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

4. Hozirgi taraqqiyotning asosiy maqsadlaridan biri har tomonlama yetuk, raqobatbardosh, qo‘yilgan muammoni mustaqil hal qilish layoqatiga ega, o‘z ustida muntazam ijodiy ishlab boradigan mutaxassislar tayyorlashdir. Bu xususiyatlarga ega bo‘lgan kadrlarni tayyorlashda mustaqil ishlarni tashkil qilish alohida o‘rin tutadi. Shu bois ham bo‘lg‘usi kadrlarning zamon talablariga muttasil tarzda moslashib borishi, ularni taraqqiyotning chinakam drayverlariga aylanishi oliy ta’lim muassasalarida talabalarning mustaqil ishlarini samarali tashkil qilish hamda nazorat qilishga kompleks yondashishni taqozo etadi.

5. Kasbiy kompetensiyasining kognitiv, funksional, kasbiy va shaxsiy, motivatsion, kommunikativ va axborot-kommunikatsiya komponentlari magistrantning o‘z kasbiy faoliyatini mustaqil tashkil etish, asoslangan boshqaruv qarorlarini qabul qilish, tashkiliy va boshqaruv bilimlari, ko‘nikmalari tizimidan

malakali foydalanish qobiliyati, o'quv jarayonida shakllangan qobiliyatlar, shuningdek, o'z maqsadlariga erishish doirasida shaxsiy fazilatlarini muvaffaqiyatli amalga oshirish va tayyorgarligida namoyon bo'ladi.

6. Meta-kompetensiyalarni shakllantirishning belgilangan mezonlari va darajalari nafaqat ko'rib chiqilayotgan ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan o'quv jarayonining samaradorligi to'g'risida ma'lumot olish, mutaxassislar tayyorlashning muayyan bosqichida buning uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarning shakllanishini baholash, balki talabalarni tashkiliy-boshqaruv subyekti sifatida shakllantirish dinamikasini kuzatish imkonini beradi.

7. Loyihani rejalashtirish magistrantlar uchun tadqiqot yoki o'quv ishlarida asosli qarorlar qabul qilish uchun tizimli asosni ta'minlaydi. Bu ularga aniq maqsadlar qo'yishga, resurslarni samarali taqsimlashga, xavflarni aniqlashga va manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilishga yordam beradi. Loyihani rejalashtirish bilan shug'ullanib, ular qaror qabul qilish qobiliyatlarini va loyihaning muvaffaqiyatli natijalariga erishish imkoniyatlarini oshiradilar. Umuman, loyihalash madaniyatini takomillashtirish orqali magistratura talabasida o'quv jarayonida barcha ta'lim elementlarini e'tibordan chetda qoldirmaslik, ta'lim obyekti va subyekti aniq tasavvur qilish, pedagogik faoliyatning har bir bosqichini aniq reja asosida shakllantira olish mahorati rivojlantiriladi.

8. Iyerarxiyani tahlil qilish usulidan foydalanish magistratura talabalarining ilmiy-pedagogik va tashkiliy-boshqaruv faoliyatlarida meta-kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot ishida iyerarxik modellashtirish M.PRIORITY 1.0 usuli orqali kadrlar tanlashdagi muhim omillar aniqlandi. Kadr tanlashdagi ustuvor omillar va ularning reytingini aniqlash, kelgusida qaysi omillarga e'tibor qaratish lozimligini aniqlash va istiqboldagi rejalarni belgilash maqsadida iyerarxik modellashtirishdan foydalanildi. Mazkur usulni asosiy mezonlar bo'yicha qo'llash natijasida, kadrlar tanlash texnologiyasini sezilarli darajada osonlashtirishga erishildi.

9. Olib borilgan tajriba-sinov natijalari asosida quyidagilar aniqlandi: ijtimoiy-madaniy faoliyatda magistratura talabalarining kasbiy va meta-kompetensiyalari rivojlangan; magistrantlar faoliyatini bevosita va bilvosita pedagogik kuzatish, ular ishtirokida amaliy treninglarni tashkil etish, suhbat, anketa so'rovi va amaliy ijodiy ishlashga qaratilgan metodlar vositasida ularda tashkilotchilik va boshqaruvchilikka doir oid ko'nikma va malakalar shakllangan. Bu esa, tadqiqot konsepsiyasi to'g'riligini statistik usullar yordamida ushbu metodika samaradorligini aniqlash imkonini berdi.

Tadqiqot natijalari asosida quyidagi **ilmiy-metodik tavsiyalar** ishlab chiqildi:

– talabalar mustaqil ishini nazorat qilishning ta'sirchan mexanizmlarini joriy qilish kerak. Buning uchun auditoriyadan tashqarida amalga oshiriladigan mustaqil ishlarga ajratiladigan ball (baho) lar ulushi aniq belgilab qo'yilishi zarur;

– OTM axborot-kutubxonalarini uzluksiz ish rejimiga o'tkazish, kutubxonalardan masofadan foydalanish imkoniyatini yaratish lozim;

– magistratura talabalariga umumiy maqsadga erishish uchun jamoada ishlash va boshqalar bilan o'zaro munosabatda bo'lish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berish uchun jamoaviy loyihalarni tashkil qilish;

- magistratura talabalarini nizolarni boshqarish, jumladan, nizolarni samarali boshqarish, muammolarni hal qilish va murosaga kelish yo‘nalishlariga o‘rgatish;
- yangi texnologiyalardan foydalanish imkoniyatini ta‘minlash va magistrantlarni o‘z faoliyatida ulardan foydalanishga o‘rgatish;
- maqsadlarga erishish uchun magistrantlarga o‘z vaqtlarini samarali rejalashtirish va ustuvorliklarini boshqarishga yordam berish bo‘yicha seminar-trening va workshoplar o‘tkazish;
- kelajakda ish faoliyatini ilmiy tadqiqot yo‘nalishida olib borishni maqsad qilgan talabalarga magistratura o‘quv kurslari shunga muvofiq tashkil etilishi kerak;
- oliy ta‘limda professor-o‘qituvchi sifatida faoliyat olib borishni maqsad qilgan talabalar esa ilmiy tadqiqot bilan birga ilmiy-pedagogik faoliyatga yo‘naltirilishi muhim;
- muayyan sohada olib boriladigan tadqiqot ta‘lim loyihalari bilan birlashtirilishi kerak;
- talabalarni volontyorlik faoliyatiga jalb qilish, ularga loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlarini berish;
- talabalarni ijtimoiy muammolarni tadqiq qilish va ularga yechim izlashga jalb qilish.

**РАЗОВЫЙ НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/05.05.2023.Ped.166.01 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ АНДИЖАНСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ПЕДАГОГИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

**АНДИЖАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ
ИНСТИТУТ**

ХАСАНОВА ГУЛСАНАМ ХУСАНОВНА

**МЕТОДИКА ПОДГОТОВКИ МАГИСТРАНТОВ К
СОЦИОКУЛЬТУРНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ (на примере специализации
узбекский язык и литература)**

13.00.02 – Теория и методика воспитания и обучения (узбекский язык)

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора наук (DSc) по педагогическим наукам**

Андижан – 2025

Тема диссертации доктора наук (DSc) зарегистрирована под номером B2024.08.24.DSc/Ped135 Высшей аттестационной комиссией при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Диссертация выполнена в Андижанском государственном педагогическом институте.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета по адресу (www.adpi.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziyounet.uz).

Научный руководитель: **Расулов Бахтиёр Махмуджонович**
доктор исторических наук, профессор

Официальные оппоненты: **Юсупова Шохидахон Жалолиддиновна**
доктор педагогических наук, профессор

Замилева Римма Равилевна
доктор педагогических наук, профессор

Тешабаева Дилфуза Муминовна
доктор филологических наук, профессор

Ведущая организация: **Ташкентский государственный университет востоковедения**

Защита диссертации состоится «___» _____ 2025 года в ___ часов на заседании разового Научного совета PhD.03/05.05.2023.Ped.166.01 при Андижанском государственном педагогическом институте (Адрес: 170100, г. Андижан, улица Дустлик, дом-4, Тахтакуприк МФЙ. Тел.: (374) 224-01-70, email: adpi@edu.uz, p-institut@exat.uz. Андижанский государственный педагогический институт, административное здание, 2-этаж, 208-зал заседаний)

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Андижанского государственного педагогического института зарегистрировано за №_____. (Адрес: 170100, г. Андижан, улица Дустлик, дом-4, Тахтакуприк МФЙ. Тел.: (374)224-01-70)

Автореферат диссертации разослан «___» _____ 2025 года.
(№__ протокола реестра “_____” _____ 2025 года)

М.Б.Артикова
Председатель разового Научного совета
по присуждению ученых степеней,
д.п.н, профессор

Д.Т.Саматов
Ученый секретарь разового Научного
совета по присуждению ученых
степеней, доктор философии (PhD) по
педагогическим наукам, доцент

Б.А.Сирожиддинов
Председатель разового научного
семинара при Научном совете по
присуждению ученых
степеней, д.б.н, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация докторской диссертации (DSc))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В эпоху глобализации и быстрого развития науки актуальной проблемой является формирования личности, способной быстро адаптироваться к условиям процесса международной конкуренции, эффективно работающей на уровне требований к квалификации специалистов на рынке труда. Четвертая цель Программы устойчивого развития ООН до 2030 года определяет задачи «поощрения непрерывного обучения и развития компетентности кадров на всех уровнях образования¹». В решении этих задач, подготовка специалистов с метакомпетенциями имеет актуальное значение, особенно на основе социокультурной деятельности, проявляются способность быстро адаптироваться к новым условиям, подготовка к непрерывному обучению, а также умение применять имеющиеся знания, умения и навыки к новым объектам.

В мировых образовательных и научно-исследовательских учреждениях проводятся научные исследования психологических аспектов и особенностей формирования профессиональных компетенций студенческой молодежи в социокультурной деятельности, коммуникативно-научные исследования, технологии формирования лидерских компетенций, формирование организаторских способностей во внеучебной деятельности, социокультурное планирование, личностно-профессиональное развитие будущего специалиста, дидактическое обеспечение компетентной подготовки магистров. В 1996 году на Симпозиуме «Базовые компетенции для Европы» Совет Европы рекомендовал государствам-членам Европейского Союза базовые компетенции², которые должны формироваться в процессе системы непрерывного образования. В связи с этим развитие личностно-ориентированных образовательных процессов, совершенствование общекультурных и профессиональных компетенций обучающихся посредством социокультурной деятельности в условиях модернизации образовательных процессов, определение метакомпетенций (soft skills), позволяющих быструю адаптацию к изменениям тенденций на рынке труда, объясняет необходимость всеобщего управления качеством (Total quality management), устранения недостатков в организационно-педагогическом процессе образования путем обмена передовым опытом, разработки и развития новых подходов, технологий и принципов.

В новом Узбекистане особое внимание уделяется повышению качества высшего образования на основе современных требований, в том числе формированию и развитию системы магистратуры. В результате комплексных реформ, реализуемых в сфере образования, было усилено нормативно-правовое, научно-методическое и материально-техническое обеспечение магистратуры, разработаны Государственные образовательные

¹ <https://unstats.un.org/sdgs/files/report/2024/SG-SDG-Progress-Report-2024-advanced-unedited-version.pdf>

² Education A. et al. Developing key competences at school in Europe: challenges and opportunities for policy. – 2015.

стандарты магистрских специальностей, внедрены и применены современные педагогические и информационные технологии в образовательном процессе. Помимо этого, подчеркивается необходимость разработки методики подготовки магистрантов к социокультурной деятельности. В 47-й цели «Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы» в Республике Узбекистан определена задача «целенаправленная подготовка 10 потенциальных высших учебных заведений к вхождению в международные рейтинги QS и THE к 2026 году»¹, в связи с этим социокультурная деятельность сегодня приобретает актуальное значение в развитии метакомпетенций (soft skills) магистрантов.

Данная диссертационная работа в определенной степени служит реализации задач, намеченных в указах Президента Республики Узбекистан от 12 сентября 2023 года за №УП-158 «Узбекистан – 2030», от 28 января 2022 года за №УП-60 «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы», от 25 апреля 2017 года за № УП-2909 «О мерах по дальнейшему развитию системы высшего образования», от 14 августа 2018 года за №УП-3907 «О дополнительных мерах по повышению эффективности духовно-просветительской работы», также постановлении от 3 мая за № УП-4307 «О дополнительных мерах по повышению эффективности духовно-просветительской работы», постановлении Кабинета Министров Республики Узбекистан от 13 мая 2019 года за № 394 «О мерах по совершенствованию системы профессиональной подготовки высококвалифицированных кадров на рынке труда» и других нормативно-правовых актов.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий в Республике. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан: I. «Формирование системы инновационных идей и путей их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-образовательном развитии информированного общества и демократического государства» развития науки и технологий республики.

Обзор зарубежных научных исследований по теме диссертации². Научные исследования, связанные с развитием научных исследований и профессиональных компетенций магистрантов, проводятся в ведущих

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги «2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги ПФ-60-сон Фармони. 47-мақсад. https://president.uz/uz/pages/view/strategy?menu_id=144 (Murojaat sanasi: 24.01. 2023)

² При написании этой части использовались следующие источники: Botcheva L., Shih J., Huffman L.C. Emphasizing Cultural Competence in Evaluation: A Process-Oriented Approach // American Journal of Evaluation. – 2009. Volume 30. №2. – P. 176-188.; Gresham F.M. Best Practices in Social Skills Training – National Association of School Psychologists: 2002. – P. 1029–1040; JACHANOVÁ DOLEŽELOVÁ, Alexandra. European Union as a factor of the advancement of gender equality in the Czech Republic. Diplomová práce, vedoucí Rovná, Lenka. Univerzita Karlova, Fakulta sociálních věd, Katedra politologie, 2006; Isaacs Miranda Ruth, “Tackling Youth Unemployment: An Investigation of Youth Employment in Italy”. 2018. University of Tennessee Honors Thesis Projects; E.Ho, A.Clarke, I.Dougherty, Youth-led social change: Topics, engagement types, organizational types, strategies, and impacts, Environment and Resource Studies, University of Waterloo, 200 University Ave W, Waterloo, ON N2L 3G1, Canada.; Маклин Р. Инновации и реформы школьного образования в странах Азии / Перспективы вопросы образования. Ежеквартальный журнал ЮНЕСКО. – М.: 1993 № 3 (83) – С. 128-141.

мировых научных центрах и высших учебных заведениях, в том числе в Массачусетском университете (США), Европейской системе квалификаций (США, Брюссель), разработке и выборе ключевых компетенций (DeSeCo) (Швейцария), Нагойский университет (Япония), Молодёжное предпринимательство: теория, практика и развитие сферы (США), Московский государственный педагогический университет (Россия), Белфилдский педагогический университет (Германия).

В мировых научно-исследовательских институтах ведутся научные работы по вопросам социокультурной деятельности как фактор формирования ценностных ориентаций личности, аксиологического потенциала социокультурной деятельности как ресурса духовно-нравственного воспитания молодежи, влияние различных организационных факторов на развитие профессиональной компетентности, компетентности в формировании личности, способности подходить к собственным способностям и обязанностям, постоянное развитие теоретической и концептуальной основы определения и выбора компетенций, а также статистических показателей личностных компетенций в будущем, эмпирические результаты по отношению к образовательным результатам, влияние социальных компетенций, полученных по общеобразовательным предметам, совершенствование механизмов развития метакомпетенций.

Степень изученности проблемы. Научные исследования, связанные с проблемами качества и дидактики управления высшим образованием в нашей стране, совершенствования личностной и профессиональной социализации студентов на основе культурно-гуманитарного подхода, творческого развития личности исследованы такими отечественными учеными как З.Азимова, М.Артикова, Р.Джураев, З.Исмоилова, М.Куронов, Ш.Марданов, А.Махмудов, Н.Муслимов, О.Мусурмонова, З.Нишонова, Р.Суннатова, Г.Туленова, Ш.Шарипов, А.Умаров, М.Урозова, Н.Эгамбердиева¹ и другие.

